

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

VATANPARVAR

●Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan ●2023-yil 13-oktabr, №41 (3051)



BIZ
HAQIMIZDA

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

@vatanparvar-bt@umail.uz

• t.me/mv_vatanparvar_uz
• t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

YANGI PARASHYUTLAR
SINOVDAN O'TKAZILDI



4-5

"SMART ARMY"—
YETAKCHI XORIJY
ARMIYALAR
ISLOHOTLARINING ASOSI



Xushxabar xush yoqar bori ellarga,
Quvonch quvvat berar asli dillarga,
Bayroq yarashadi g'olib qo'llarga,
Kuchli beshtalikda o'zbekcha sadaf,
G'olibin qutlamoq xalqiga sharaf!

Mahmud TOIR,
O'zbekiston xalq shoiri

19th Asian Games
Hangzhou 2022

TURIZM SOHASI VA “YASHIL MAKON” LOYIHASI DOIRASIDAGI VAZIFALAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 11-oktabr kuni turizm va madaniyat maskanlari imkoniyatini to'liq ishga solish, “Yashil makon” umummilliy loyihasining kuzgi mavsumini tashkil etish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Ma'lumki, turizm iqtisodiyot uchun qo'shimcha va tunganmas manba. Shu bois har bir davlat sayyoohlarni jalg etishga harakat qiladi. Mamlakatimizda bu sohaga keng imkoniyatlar yaratilayotgani natijasida mehmon o'rinnari, sayohat joylari va yo'nalishlari ko'payib bormoqda.

O'tgan 8 oyda yurtimizga xorijdan 4 million 300 ming nafar turist kelgan, ulardan 1 milliard 400 million dollar tushum bo'lgan. Qo'shimcha dam olish kunlari va chegirma berilgani natijasida ichki sayyoohlarni soni 15 million nafarni tashkil qilib, o'tgan yilda qaraganda 2 barobar o'sgan.

Turizm infratuzilmasi izchil rivojlanmoqda. Joriy yilda 15 mingta yangi mehmon o'rni tashkil etilib, ularning soni 137 mingtaga yetdi. 540 ta dam olish va ko'ngilochar maskan barpo etildi, 70 ta turizm marshruti ochildi.

Shuningdek, 6 ta xususiy aviakompaniya ish boshladi, yangi 23 ta samolyot olib kelindi, 20 ta xalqaro va 6 ta ichki qatnov yo'lga qo'yildi. Samarqand aeroportida haftalik xalqaro reyslar 46 tadan 85 taga ko'paydi. 1 ming 300 ta zamonaviy avtobus xarid qilinib, 38 ta yo'nalish ochildi.

Yig'ilishda turistlarni ko'paytirish bo'yicha yangi imkoniyatlar muhokama qilindi.

Avvalo, qo'shni davlatlardan, Rossiya va Xitoydan sayyoohlarni jalg qilish uchun qulay imkoniyat borligi ta'kidlandi. Xususan, yurtimiz

viloyatlari Xitoy provinsiyalari bilan hamkorlik o'rnatgan. Bundan foydalanib, hududlarimiz turistik salohiyatini targ'ibot qilib, Xitoydan yiliga 1 million sayyohni jalg qilish mumkinligi aytildi.

Mamlakatimizga uzoq davlatlardan turistlar kelishi ham ko'paygan. Misol uchun, Hindiston, Yaponiya, AQSh va italiyalik sayyoohlarni 3-4 barobar oshgan. Birgina Xorazmga Ispaniyadan 40 ming turist tashrif buyurgan. Lekin ular tranzit orqali kelayotgani sababli ortiqcha xarajat qilyapti. Agar Madriddan yurtimizga aviareys qo'yilsa, turoperatorlar sayyoohlarni 4 karra oshirishga tayyorligini bildirgan.

Shu bois Transport vazirligiga xoridagi elchilarimiz bilan birga aviaqatnovlarni ko'paytirish choralarini ko'rish topshirildi.

Yaqinda, 16–20-oktabr kunlari Samarqand shahrida ilk bor Jahon turizm tashkilotining Bosh assambleyasi yig'ilishi bo'lib o'tadi. Unga 128 ta mamlakatdan 1 mingdan ziyod ishtirokchi, shu jumladan, 79 nafar turizm vaziri, 24 nafar vazir o'rinosari kelishi kutilmoqda.

– Bu tadbir mamlakatimiz turizm salohiyatini ko'rsatish uchun juda katta imkoniyat, – dedi davlatimiz rahbari.

Shu bois Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardan soha vakillarini jalg qilib, har bir hududning tarixi, tabiat, madaniyati, ziyoratgohlari, ovqatlari, sayyoohlarni va marshrutlarini namoyish etish, loyihalar taklif

qilib, kelishuvlarga erishish zarurligi ta'kidlandi.

Turistlarni jalg qilish bo'yicha yana bir katta yo'nalish bu – madaniy tadbirlar. Prezidentimiz tashabbusi bilan Qoraqalpog'iston va ayrim viloyatlarda festivallar tashkil etilgan. Shu tajriba asosida qolgan hududlarda ham turistlarni jalg qiladigan madaniy tadbirlarni ko'paytirish topshirig'i berildi.

Davlatimiz rahbari mamlakat imijida kino san'atining o'rni alohida e'tibor qaratdi. Madaniyat vazirligi va Kinematografiya agentligiga bu borada ko'rsatmalar berildi.

“Ipak yo'li” turizm va madaniy me'ros xalqaro universiteti mutaxassislari ishtirokida servis sifati hamda soha xodimlarining malaka va madaniyatini oshirish vazifasi qo'yildi.

Joylardagi sayilgoh va istirohat bog'larini jonlantirish, tematik turizm ko'chalarini tashkil qilish, badiiy jamoalarni libos va anjomlar bilan ta'minlash masalalariga ham to'xtolib o'tildi.

Yig'ilishda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlarni ham ko'rib chiqildi.

Yurtimizda bu harakat boshlanganiga 2 yil bo'ldi. Shu davorda 1 ming 200 gektardan ortiq yashil bog' va jamoat parklari, 1 million gektardan ziyod yashil hudud va qoplamlar barpo etildi. Umuman, jamiyatda, mas'ullarda daraxtga nisbatan munosabat o'zgardi.

Endi 25-oktabrdan 1-dekabrgacha “kuzgi daraxt ekish mavsumi” e'lon

qilinadi. Bu mavsumda 85 million tup ko'chat ekilishi mo'ljallangan.

Buning uchun Respublika shtabi tuzilib, unga Fanlar akademiyasi, Tuproqshunoslik va agroximyoviy tadqiqotlar hamda O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot institutlari, o'rmon xo'jaligi rahbarlari kiritiladi. Ular tuproq tahlili va iqlim sharoiti asosida ko'chat turini belgilab beradi.

O'rmon xo'jaligi agentligi tomonidan har bir mahallaga 200 tadan ko'chat bepul yetkazib beriladi. Shuningdek, 15-oktabrdan barcha tuman va mahallalarda ko'chat yarmarkasi tashkil qilinadi.

Ko'chat ekishda manfaatdorlikni oshirish maqsadida avtomobil, temir yo'l, daryo va kanallar bo'yli aholi va tadbirkorlarga shartnomma asosida yer toifasi o'zgartirilmasdan bo'lib beriladi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Jamoat ishlari jamg'armasi mablag'lari bundan buyon mahallalarning o'ziga beriladi va daraxt ekish, parvarishlash hamda tozalik tadbirlariga yo'naltiriladi.

Ma'lumki, viloyat, tuman va shaharlarda obodonlashtirish bo'limlari bor. Bu xizmatlarni, tajriba tariqasida, xususiy sektorga berish taklifi bildirildi. Bunda har bir ko'cha daraxtleri bilan alohida-alohida lot qilinib, bir yillik mablag'i bilan ochiq tanlovga qo'yiladi. Mutasaddilarga shu boradagi shartlar va moliyalashtirish tartibini ishlab chiqish topshirildi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan tarmoq va hududlar rahbarlari axborot berdi.

“INDORAMA CORPORATION” KOMPANIYASINING MAMLAKATIMIZDAGI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH REJALARI QO'LLAB-QUVVATLADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-oktabr kuni Singapurning “Indorama Corporation” kompaniyasi asoschisi va raisi Shri Prakash Loxiya boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

O'zbekiston iqtisodiyotining kimyo, to'qimachilik va qishloq xo'jaligi sohalarida yirik investor va muhim texnologik hamkor bo'lgan ushbu kompaniya bilan o'zaro manfaatli sheriklikni yanada rivojlantrish masalalari ko'rib chiqildi.

Ta'kidlash joizki, “Indorama Corporation” tomonidan

mamlakatimizda paxta tolasini yetishtirish va chuqrqayta ishlashga qaratilgan yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi. Qo'qon superfosfat zavodi modernizatsiya qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari sigapurlik investorning O'zbekistonda yangi loyihalarni amalga oshirish, shu jumladan, “Farg'onaazot”

aksiyadorlik jamiyati quvvatlarini kengaytirish, tarmoq korxonalarini xususiylashtirish, to'qimachilik va qishloq xo'jaligida zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish rejalarini qo'llab-quvvatladi.

Ushbu loyihalarni amalga oshirish natijasida kompaniyaning mamlakatimizga to'g'ridan to'g'ri

investitsiyalari umumi hajmi hozirgi 600 million dollardan 850 million dollargacha oshadi.

Investitsiyaviy hamkorlikning ustuvor loyihalarini ilgari surish bo'yicha “Yo'l xaritasi”ni qabul qilish muhimligi qayd etildi.

ASOSIY MAQSAD – HAMKORLIK VA TAJRIBA ALMASHISH

Belarus Respublikasi mudofaa vazirining moddiy-texnik ta'minot bo'yicha o'rinnbosari general-mayor Andrey Burdiko boshchiligidagi harbiy delegatsiya yurtimizga tashrif buyurdi.



Dastlab delegatsiya vakillari mudofaa vazirining moddiy-texnik ta'minot bo'yicha o'rinnbosari polkovnik Zoirjon Bazarbayev hamrohligida Qurolli Kuchlar akademiyasiga kelishdi. Akademiya infratuzilmasi, ta'lif jarayoni va o'quv-moddiy bazalari bilan yaqindan tanishgan mehmonlar mintaqaning yetakchi oliy harbiy ta'lif muassasasida

kursantlar uchun yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlarni alohida e'tirof etishdi.

Mazkur uchrashuvdan ko'zlangan asosiy maqsad ikki davlat harbiy hamkorlik aloqalarining joriy holati va kelajakdagi istiqbollari yuzasidan o'zaro fikr almashishdan iborat bo'ldi.

Kunning ikkinchi yarmida delegatsiya a'zolari Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot

akademiyasiga tashrif buyurib, u yerdagи harbiy shifokor kadrlarni tayyorlash jarayonlari, zamonaviy simulyatsiya xonalari bilan tanishdi.

Tashrif davomida Chirchiq aerodromida ham bo'lgan mehmonlarga bu yerdagи shart-sharoitlar haqida ma'lumot berildi, harbiy uchuvchilar bilan o'zaro suhbat uyshtirildi.

So'ngra delegatsiya a'zolari poytaxtimizdagи "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasiga tashrif buyurib, u yerdagи "Shon-shara" davlat muzeyi faoliyati bilan tanishdi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
«Vatanparvar»

✓ XALQ VA ARMIYA – YAKDIL

MUDOFAA VAZIRLIGIDA CALL-SEENTER ISH BOSHLAGDI

Joriy yil 10-oktabr kunidan Mudofaa vazirligining Tarbiyaviy va maskuraviy ishlar bosh boshqarmasida psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha Call-senter bo'linmasi faoliyat boshladi.



O'zbekiston Respublikasi
Mudofaa vazirligi

**PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISH
CALL-CENTER BO'LIMASI**

13-57 qisqa raqami
bercha shahar, mobil, harbiy qism va muassasalardagi xizmat telefonlaridan birdek qo'ng'iroq qilib mumkin

Psixolog
Suitsidolog
Psixiatr

Quyidagi masalalar bo'yicha murojaatlaringiz bo'lsa, qo'ng'iroq'ingizni kutamiz!

- Psixologik qo'llab-quvvatlash
- Otaviy munosabatlari
- Shaxs sifatida rivojanish
- Stressli vaziyatlar
- Psixologik maslahat olish
- Nizoli masalalar bo'yicha psixologik yordam ko'rsatish
- Bolalar psixologiyasi

Hal qilib bo'lmaydigan muammo yo'q, har qanday vaziyatdan chiqishning munosib yo'li bor!

olish, nizoli masalalar bo'yicha psixologik yordam ko'rsatish, shaxs sifatida rivojanish, stressli vaziyatlar, bolalar psixologiyasi va oilaviy munosabatlari kabi masalalarda yordam ko'satadi. Har bir masala psixolog, suitsidolog, psixiatr kabi malakali mutaxassislar tomonidan atroficha o'rganiladi.

Bundan tashqari qo'shinlarimizda xizmat qilayotgan harbiy psixologlarning murojaatlar bilan ishlash borasidagi faoliyati muvofiqlashtirilib boriladi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan mansabdor shaxslarga taklif va tavsiyalar beriladi.

Kelib tushgan murojaatlar tahlili yuritilib, murojaatchining ixtiyori bilan uning ism-sharifini sir tutilishi ham to'liq ta'minlanadi.

**Podpolkovnik
Gulnora HOJIMURODOVA**

Ta'kidlash joizki, mazkur Call-senter mutaxassislari murojaatchilarga psixologik qo'llab-quvvatlash, maslahat

YANGI RUSUMDAGI



Toshkent harbiy okrugi "Markaz" desantchilar tayyorlash bazasida havo-desant tayyorgarligi mutaxassislari va Fransiya Respublikasi "Safran" kompaniyasi vakillari bilan hamkorlikda yangi parashut tizimlarini o'zlashtirish bo'yicha trening o'tkazildi.



Yevropadan tashrif buyurgan mutaxassislar o'zları bilan "EPS", "MMS-360" va "Legenda" rusumli fransuz parashyutlarini olib kelgan. Asosiy maqsad esa mana shu parashut rusumlarini Vatanimiz himoyachilariga tanishtirish va uning imkoniyatlarini sinovdan o'tkazib ko'rish bo'ldi.

Ishtirokchilar dastlab nazarij jihatdan o'zaro fikr almashishdi. Shundan so'ng parashyutlarni taxlash, u bilan havo kengliklarida nimalarga ko'proq e'tibor qaratish kerakligi haqida tajriba almashildi. Aytish joizki, milliy armiyamiz safida xizmat qilayotgan yigitlarimiz yangilikka o'ch va bilimga chanqoqligi bilan o'z kasbiy xarakterini shakllantirgan. Tarjim o n desantchilarimiz berayotgan

savollarni o'girishga zo'rg'a ulguryapti. Bunga ham qanoat qilmagan qora ko'zlarimizning qisqa vaqt ichida fransuz tilida jumlalar tuza boshlaganiga, o'zaro muloqotga kirishib borayotganiga ham guvoh bo'lamic. Ular orasida Xalqaro armiya o'yinlarining "Desant vvvodi" musobaqasi orqali anchagina "ko'zga issiq" bo'lib qolgan tajribali yigitlarni ham uchratamiz. Yerdagi tayyorgarlik bosqichlari mana shunday qiziq jarayonlarga boy bo'ldi.

Shundan so'ng trening ishtirokchilari amaliy sakrash mashg'ulotlariga kirishdi. Desantchilar start chizig'ida guruh-guruh bo'lib eng so'nggi tekshiruvlardan o'tib, MI-171 vertolyoti tomon harakatlanishdi. 600, 1 200 va 3 000 metr balandlikka ko'tarilgan "uchqoq" eshigi ochiladi. Desantchilar orasidan kimdir turtadi, shovqinning zo'ridan uning gaplarini zo'rg'a eshitaman:

PARASHYUTLAR SINOVdan O'TKAZILDI



– Aka, meni suratga oling, havoda harbiycha salom beraman!

Parashyut bilan ochiq havoga sakrayotgan desantchilar orasidan hali halqani tortmasdan burun kimdir harbiycha salom beradi, kimdir salto otadi, yana kimdir esa qo'llarini keng ochgancha adrenalinini oshiradi. Bularning bari xushchaqchaq desantchilarning o'zlariga bo'lgan ishonchi va jangovar ruhi baland ekanligidan dalolat beradi.

Yerda kuzatib turgan mehmon mutaxassislar esa hali o'zlariga begona bo'lgan parashyut rusumlarini bu qadar tez o'zlashtirib olgan harbiyalarimizni ko'rib, hayratini yashirolmaydi, albatta.

– Fransyaning biz sinab ko'rgan bu maxsus parashyutlari belgilangan aniq nuqtaga bexato qo'nishda juda qo'l kelar ekan. Bu, albatta, yuklatilgan ma'lum vazifani bajarayotgan harbiy xizmatchi uchun qo'shimcha qulayliklar yaratadi. Shuningdek, parashyutning quyoshli iqlim sharoitiga chidamliligi uning yana bir ustunligi ekan, – deydi mayor Jonibek Temurov. – Guvohi bo'lganingizdek, buning imkoniyatlarini juda tez o'zlashtirishga harakat qildik. Parashyut bilan sakragan safdoshlarimiz shu yerning o'zida uni qayta taxlab, yana havoga ko'tarilmochi

bo'lganida boyagi vaziyat bo'ldi. Uni o'zingiz ham ko'rdingiz.

Mayor Temurov aytmoqchi bo'lgan vaziyat esa shunday bo'ldi. Fransiya Qurolli Kuchlarida desantchilar o'zlarini sakraydigan parashyutni o'zlarini taxlamas, bu ish bilan alohida kompaniya shug'ullanar ekan. Bundan kelib chiqadiki, dala sharoitida parashyutni taxlash va shu yerning o'zidan havoga ko'tarilib, qayta sakrashni amalga oshirish ularning tasavvuriga yet ekan. Ko'z o'ngida sodir bo'layotgan bu voqealarni ko'rib turgan mehmonlar bir-birlariga qaragancha yelka qisib, vaziyatni kuzatishdi.

Mazkur amaliy sakrashlar davomida desantchilar axloqiy-ruhiy tayyorgarlig-u jangovar shayligini sinovdan o'tkazish barobarida xalqaro tajriba va mahoratlarini yanada oshirishdi.



Katta leytenant
Islamjon QO'CHQOROV,
«Vatanparvar»



QO'MONDON SINOVIDA SAYQALLANGAN MARDLAR

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Zaynobiddin Iminov rahbarligida Buxoro garnizonida joylashgan harbiy qism kompleks sinovlardan o'tkazildi.



Dastlabki saf ko'rige jarayonlarida yurt himoyachilarining tashqi ko'rinishi, anjom-aslahalarining butligi birma-bir ko'zdan kechirilgach, jismoniy tayyorgarlik sinovlariga start berildi. 5 va 10 kilometrlik masofalarga yugurish harbiy xizmatchilar uchun matonat sinovi bo'ldi.

Jangovar vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilishda ham sohaga oid bilimga ega bo'lish eng muhim jihatlardan biridir. Shundan kelib chiqib, harbiy xizmatchilardan bir qancha yo'nalishlarda nazariy sinovlar qabul qilindi. Aloqa, artilleriya, Umumharbiy nizomlar, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, taktik qisqa masalalar yechish kabi bi qancha yo'nalishda ko'rsatilgan yuqori natijalardan shaxsiy tarkib bilan olib borilayotgan nazariy mashg'ulotlar samarasini ko'rish mumkin. Shuningdek, muhandislik, tibbiy tayyorgarlik, ommaviy qirg'in qurollaridan dastlabki himoyalanish, o'q-dorilar solingan qutini jang maydonida belgilangan nuqtaga tez va betalafot yetkazib borish bo'yicha amaliy sinovlar ham real vaziyatga yaqinlashtirilgan holda olib borildi.

Qismda erta tongdan harbiy xizmatchilar to'liq anjom-aslahalar, yuk qoplari bilan uzoq masofaga marsh uchun saf tortdi. Ko'zlangan manzil – "Buxoro" umumqo'shin



poligon. "Buxoro" umumqo'shin poligoni bugun to'ma'no da yangicha qiyofa kasb etgan. Jangovar tayyorgarlik uchun amaliy otish maydonlari, harbiy sohaga oid barcha yo'nalishlar shaharchalari sifatli mashg'ulotlar olib borish va o'z navbatida mukammal harbiy xizmatchini shakllantirishga mo'ljallangan kompleks majmuuga aylandi.

Harbiy xizmatchi marsh chog'ida, shunchaki masofani belgilangan vaqtida piyoda bosib o'tish bilan cheklanmaydi. Yo'lda ularni shartli dushman pistirmasi, zararlangan hudud singari turli to'siqlar kutib turibdi. Bu kabi shartli dushman tuzog'idan betalafot o'tish uchun hushyor odimlash lozim. Barcha mashaqqatlardan o'tib, poligonga yetib kelgan yurt himoyachilaridan turli amaliy me'yorlar qabul qilindi. Deyarli barcha o'quv nuqtalarida bir vaqtida, intensiv ravishda kechayotgan sinovlar real jang sharoitiga yaqinlashtirilgan holda olib borildi.

Otish tayyorgarligi borasidagi mohirlik esa pistolet va avtomatdan nishonlarni yakson etish chog'ida bo'y ko'rsatdi. Bundan tashqari kun davomida jangovar texnikalarni boshqarish va ulardan belgilangan

nishonlarni yakson qilish bo'yicha ham okrug mutaxassislari tomonidan sinovlar qabul qilindi.

"Buxoro" umumqo'shin poligonining uzoq kengliklariga tun pardasi yoyilgan paytda ham sinov jarayonlari izchillik bilan davom etdi. Bir tomonda harbiy xizmatchilar pistoletdan nishonlarni yakson qilayotgan bo'lsa, boshqa tomonda avtomat o'qlari o'zidan yorqin iz qoldirib yog'iladi. Olisda, zulmat qarida qashqir ko'zidek miftillab turgan nishonlar bir zumda yo'q bo'ladi.

Tungi otish tayyorgarligida harbiy xizmatchilar yanada yuqori natijalarni ko'rsatishlari uchun general-mayor Zaynobiddin Iminov tunda otishning muvaffaqiyatlari bo'lismeni ta'minlovchi omillar yuzasidan ham mashg'ulot o'tdi. Qo'mondon qorong'ida otishning samarali bo'lishi ko'p jihatdan tungi ko'rish moslamalariga bog'liq bo'lismeni ta'kidladi.

– Har bir jangchi, avvalo, o'z quroli imkoniyatlarini his etishi, u bilan bir tan-u bir jon bo'lishi kerak. Buning uchun timsiz mashqlarda sayqallanish lozim. Agar mohir bo'lsangiz, har qanday soz quroldan nishonni bexato yakson qila olasiz, – deya qo'mondon bir nechta qurollardan bexato nishonga otib ko'rsatdi.

General olib borgan bu kabi motivatsion mashg'ulotdan so'ng yurt himoyachilari jangovar tayyorgarligini yanada mustahkamlash uchun bor kuch-imkoniyatlarini safarbar etishi tabiiy.



JANGOVAR TAYYORGARLIKKA YANGICHA YONDASHILMOQDA

Qo'shinlarning jangovar tayyorgarligini mustahkamlash, ularni zamonaviy qurol-aslahha va harbiy texnikalar bilan ta'minlash, jang olib borishning yangicha uslublarini tayyorgarlik jarayonlariga samarali tatbiq etish Qurolli Kuchlarimiz qudratini oshirishning asosiy negizi hisoblanadi. Shu boisdan bugungi kunda Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jangovar tayyorgarlikka katta e'tibor qaratilib, zamonaviy jangovar harakatlarni chuqur tahlil etish orqali qo'shinlar tayyorgarligiga yangicha mashg'ulot va me'yorlar kiritilmoqda.



Mamlakatimiz Mudofaa vazirligi tomonidan hozirgi vaqtida dunyoda ro'y berayotgan qurolli to'qnashuvlar, jangovar harakatlар xarakteri va taktikasi chuqur tahlil etilib, qaramaqarshi tomonda kurashayotgan bo'linmalarining oldindan tayyorlangan istehkomlarda jang olib borish strategiyasi har taraflama o'rganilmoqda. Ushbu izlanishlar qo'shinlar jangovar tayyorgarligini mustahkamlash, zamonaviy jang uslublarini o'zlashtirishga hissa qo'shyapti. Bu kabi mashg'ulotlar yurt himoyachilarining tajribasini



orttirib, malakalari oshishida muhim o'rinn tutmoqda.

Mudofaa vazirligi rahbariyati tashabbusi bilan bugun barcha umumqo'shin poligonlarida mashg'ulotlarni yuksak darajada o'tkazish uchun barpo etilayotgan jangovar tayyorgarlik obyektlari qo'shinlar tayyorgarligini yuksaltirib, jang qilish san'atini mukammal o'zlashtirishga ko'mak bermoqda.

Mashg'ulotlar davomida guruh, juftlik va yakkalik tartibda harbiy xizmatchilar tomonidan taktik vazifalarni jipslikda bajarishi, shartli dushmanni yo'q qilishi,

jang maydonida shartli yaradorlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishi hamda ularni evakuatsiya qilishi, egallangan pozitsiyalarni ushlab turish uchun mudofaa jangini olib borishi kabi vazifalar o'rgatilyapti.

Mashg'ulotdan oldin guruh shaxsiy tarkibi bilan yo'riqnomalar o'tkazilib, jang operatsiyalarini olib borish taktika va strategiyasi, yaralangan safdoshiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish hamda egallangan hududni himoya qilish bo'yicha ma'lumotlar yetkazildi.

**Podpolkovnik Timur NARZIYEV,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati boshlig'i**

HARBIY TEKNIKALAR

QISHKI MAVSUM UCHUN TAYYORLANMOQDA

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugda qo'shinlardagi eng mas'uliyatli tadbirlardan biri – qurol-yarog' va harbiy texnikalarni qishki mavsumda foydalanish tartibiga o'tkazishdan oldin ko'rgazmali mashg'ulot tashkil etildi.



Nukus garnizonidagi harbiy qismlarning birida qurol-yarog' va harbiy texnikalarni mavsumiy foydalanish tartibiga o'tkazish bo'yicha tashkil etilgan ko'rgazmali mashg'ulotda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-major Farhodjon Shermatov, okrug qo'mondonligi hamda Nukus va Urganch garnizonlaridagi harbiy qismlarning harbiy xizmatchilari ishtirot etdi.

Tadbirda harbiy texnika va qurol-aslahalarning jangovar shayligini ta'minlash, ularni soz holatda saqlashda ko'rsatilayotgan texnik xizmatlarning ahamiyati alohida ta'kidlandi. Har bir komandir, har bir harbiy xizmatchi o'ziga biriktirilgan qurol-yarog' va harbiy texnikaning soz va shayligi uchun mas'ul ekanligi eslatildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Xorazm viloyati yurtimizning Shimoli-g'arbiy tomonida joylashgani bois qishning sovuq kunlari boshqa hududlarga qaraganda bu yerda barvaqt hamda shiddat bilan kelishi kutiladi. Shuning uchun Nukus va Urganch garnizonlarida joylashgan harbiy qism va muassasalarda jangovar va harbiy texnika hamda qurol-yarog'larni qishki mavsumda foydalanish uchun hozirlash ishlari boshqa hududlarga qaraganda oldin boshlanadi.

Mazkur kompleks tadbirlar harbiy texnika va qurol-aslahalarni yuqori jangovar shaylik darajasida ushlab turish hamda ob-havoning sovuq sharoitida foydalanishga hozirlash uchun tashkil etiladi.

Ko'rgazmali mashg'ulotni tashkil etish uchun harbiy qismlarning jangovar va harbiy texnikalarni saqlash parkida 8 ta o'quv joyi hamda 25 ta o'quv nuqtasi tashkil etildi. U yerda jangovar mashina, tank, zirhli transportyor, zenit-artilleriya qurilmalari, maxsus texnika, qurol-yarog' va boshqa texnikalarni qishki sharoitda foydalanish tartibiga o'tkazish ishlaringning mohiyati, texnika xavfsizligi qoidalariiga rioya etish, tashkil etilgan postlarda samarali va sifatli ish olib borish, qurol-yarog' va texnikani ob-havoning harorati past sharoitlarda ishlatalish qoidalari, jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha mutaxassislar tomonidan yo'rqnomalari berildi. Texnikalarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ko'rgazmali tarzda ishlar namoyish etildi.

Mazkur tadbirlarni bajarishda texnologik xaritalarga ko'ra, harbiy qismlardagi texnikalarda sovitish suyuqliklari almashtiriladi, har bir jangovar mashina agregat va tugunlari tekshiriladi, filtrlarni tozalash va almashtirish ishlari olib boriladi, yoqilg'i-moylash ashyolari yangisiga o'zgartiriladi, elektr va aloqa jihozlarining sozligi nazoratdan o'tkaziladi.

Tadbir rejasiga ko'ra, oktabr oyining oxirigacha Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlaridagi mavjud qurol-aslaha va harbiy texnikalarning barchasi qishki mavsumda foydalanish uchun shay holatga keltiriladi.

**Kichik serjant
Abdullahon UMARALIYEV,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati**





"SMART ARMY" YETAKCHI XORIJY ARMIYALAR ISLOHOTLARINING ASOSI

So'nggi yillarda yetakchi xorijiy davlatlarda Qurolli Kuchlarni tubdan isloh qilishga qaratilgan uzoq muddatli strategik daстurlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Xususan, XXI asr "kelajak armiyasi"ni shakllantirish konsepsiyalari zamonaviy va istiqboldagi qurolli mojarolar, qurolli kurashning innovatsion vositalarini ishlab chiqarish, quruqlik, suv, havo, kosmik va kiber makonlarda jangovar harakatlarni olib borishning yangi usullarini hisobga oлган holda qo'shin turlarini modernizatsiya qilish va optimallashtirishni o'z ichiga olmoqda.

Nufuzli xorijiy "aqliy markazlar"ning prognozlariga ko'ra, sun'iy intellekt va yangi fizik prinsiplarga asoslangan harbiy texnologiyalar (*robototexnika, biotexnologiya, uchuvchisiz va qo'shinlarni boshqarish tizimlari, lazer, akustik, "aqlii" qurollar va o'q-dorilar*) "harbiy sohadagi inqilob"ni yuzaga keltirdi.

Qurolli Kuchlarni rivojlantirish zamonaviy yondashuvlarni o'z ichiga oлgan "Kelajak Qurolli Kuchlari", "XXI asr quruqlikdagi qo'shinlari", "Kelajak askari", "Istiqbolli integratsiyalashgan jangovar tizimlar" va shular kabi uzoq muddatli dasturlar orqali amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Rossiyada "Kelajak jangchisi", Yevropa davlatlari, xususan Germaniyada "Kelajak askari" (*Infanteristder Zukunft*), Buyuk Britaniyada "Jangchining integratsiyalashgan texnologiyalari" (*Future Integrated Soldiye Technology*) maqsadli loyihalari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, xorijiy davlatlar Qurolli Kuchlarining rivojlanishi "insonni muhofaza qiliш" yondashuviga asoslanadi.

Xorijiy harbiy ekspertlarning fikriga ko'ra, qo'shinlar va qurollarni boshqarishda tarmoqqa yo'naltirilgan strategiyaning asosiy tamoyili "qo'mondondan askargacha vaziyatni bir xilda anglash" bo'lib, bu dashman ustidan axborot ustunligini ta'minlaydi. Avvallari "tarmoq urushi" tushunchasi strategik, operativ va taktik boshqaruvda qo'llaniladi, deya taxmin qilingan bo'lsa, bugungi kunda ushbu konsepsiya allaqachon "batalyon-rota-vzvod" darajasida amalga oshirilayotganligi va hatto alohida harbiy xizmatchigacha tushganligini ta'kidlash mumkin.

AQShda qabul qilingan "Quruqlikdagi kuchlar – 2030" konsepsiysi 2030-yilgacha qurolli kurashning yangi vositalarini joriy etish asosida AQSh armiyasining tashkiliy-shtat tuzilishini isloh qilishni nazarda tutadi.

Harbiy tahlilchilarning fikricha, ushbu strategiyaning amalga

oshirilishi Qurolli Kuchlarning o'ziga xos tuzilmasidan yagona ko'p maqsadli, universal tuzilmaga o'tish, razvedka, axborot yetkazish va yakson qilish elementlaridan iborat global darajadagi axborot va zarba platformasini yaratishga yo'naltirilgan. Zamonaviy harbiy to'qnashuvlarda ilg'or qurollardan foydalanishning asosi jangovar vazifani bajarayotgan askarning masofasini halokat maydonidan maksimal ravishda uzoqlashtirish tamoyilidir.

AQShda kelgusi o'n yilliklarda, 2030-yilgacha Qurolli Kuchlarni rivojlantirishning eng muhim dasturi sifatida quruqlikdagi jangovar robotlarning bir nechta turlarini yaratishni nazarda tutadigan kelajak jangovar tizimlari (*Future Combat System*) dasturini amalga oshirishni boshlaganligi xorijiy ekspertlarning e'tiborini tortmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, barcha istiqbolli loyihalar askarlarning raqamli jangovar boshqaruv tizimiga integratsiya qilinishini ko'zda tutadi. Shuningdek, "Kelajak askari" loyihalarining maqsadlari sirasiga himoya elementlarida yengil innovatsion materiallardan foydalanish orqali harbiy xizmatchining mobilligini oshirish kiradi. Misol uchun, "Soldiye Center" missiyasi (AQSh) istiqbolli loyihalarining asosiya maqsadi "jangchining tizim sifatida hisobga oлган holda jang maydonida askarning omon qolishi, jangovar barqarorligi, harakatchanligi, samaradorligi va kundalik hayotining sifatini maksimal darajada oshirishdir".

Shu bilan birga yetakchi xorijiy davlatlar mudofaa sanoati mutaxassislari, "aqliy markazlar" va muhandis-texnik olimlarning ilmiy gipotezalari asosida fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borish, ishlab chiqarilgan qurol tizimlarini sinov-aprobatsiyalardan o'tkazish va qo'shinlarni ta'minlashni amalga oshirmoqda.

Xorijiy ekspertlarning prognozlariga ko'ra, kelajakdagi harbiy texnologiyalar va "aqlii" qurol tizimlarining qo'shinlarga joriy etilishini strategiya va konsepsiyalarda belgilangan

muddatlarga (2030, 2040, 2050) qarab toifalarga ajratiladi. Umuman olganda, "aqlii armiya" innovatsion loyihalari ko'p tarmoqli vazifalarni bajarishga moslashtirilgan, sun'iy intellekt va kognitiv texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan eng yangi qurollar bilan ta'minlangan, yuqori samarali jangovar tizimlarga integratsiya qilingan, pirovardida raqamlashtirilgan Qurolli Kuchlarni yaratishga qaratilgan.

Ta'kidlash joizki, yurtimizda ham milliy armiyamizni yanada rivojlantirish, milliy qadriyatlargacha asoslangan, yuksak ma'nnaviyatli, yuqori professional, vatanparvar, yurtiga va harbiy burchiga sodiq harbiy xizmatchilarni tayyorlash va tarbiyalash, bo'linmalarning jangovar shayligi va imkoniyatlarini zamonaviy qurol-yarog' va raqamli texnologiyalar asosida oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Albatta, yetakchi xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini tatbiq qilgan holda zamonaviy qurol-yarog' bilan ta'minlangan, raqamlashtirilgan, yuqori intellektual-texnologik salohiyatga ega, dunyodagi murakkab geosiyosiy vaziyatning noan'anaviy tahdidlari tezkorlik bilan javob qaytaruvchi Qurolli Kuchlarni yaratish, ya'ni Yangi O'zbekiston "smart" armiyasini istiqbolda shakllantirish uchun konseptual qarashlar, barcha shart-sharoit hamda imkoniyatlar mavjud.

Hech shubhasiz, bugungi kunda milliy armiyamizda ushbu yo'nalishda kechayotgan islohotlar mammakatimiz mudofaa salohiyati, Qurolli Kuchlarimizning jangovar qudrati hamda ularning nufuzini xalqaro maydonda yanada oshirishga, xalqimiz va armiyamizning birdamligini yuksaltirishga hamda Yangi O'zbekistonning tinchligi va barqaror taraqqiyotini kafolatlashga xizmat qiladi.

**Polkovnik Azizjon TOIROV,
Qurolli Kuchlar Harbiy meros
va zamonaviy tadqiqotlar instituti
markaz boshlig'i,
Hamrobek ALLABERGANOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
ilmiy vzvod tadqiqotchisi**

ARTILLERIYA

— JANGOVAR HARAKATLAR LOKOMOTIVI



Bugungi kunda yetakchi xorijiy davlatlar Qurolli Kuchlarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni o'rganish va ilg'or tajribani o'z Qurolli Kuchlarimizga tatbiq etish, "Aqli armiya" da'sturini izchillik bilan amalga oshirish kabi qator vazifalarining ahamiyati tobora oshib bormoqda.

Ayniqsa, artilleriya jang maydonlarida qo'llana boshlaganidan buyon dushman ustidan g'alaba qozonishning muhim omillardan biri bo'lib qoldi. Xususan, Birinchi va Ikkinci jahon urushlari, Koreyadagi qurolli mojaroda artilleriyaning roli hal qiluvchi kuchga ega bo'ldi. Jang, muhoraba va turli operatsiyalarda artilleriyan har tomonlama qo'llay oladigan shaxsiy tarkibning ustunligi yaqqol sezila borganki, mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, XX asrdagi urushlarda quruqlikdagi qo'shinlar ayni artilleriyaning o't ochishidan katta talafot ko'rgan.

Shunga qaramay, XX asrning oxiri va XXI asrning boshida Fors ko'rfa, sobiq Yugoslavia, Afg'oniston, Shimoliy Afrika hamda boshqa mintaqalardagi qurolli mojarolarda aviatsiya, qanotli raketalar va zarbdor uchuvchisiz uchish apparatlarining keng qo'llanishi jangovar harakatlarda artilleriyaning talafot yetkazish vazifalarini bajarishdagi ulushini bir qancha pasayishiga olib keldi. Ba'zi bir mutaxassislar "artilleriyaning vaqt o'tdi" degan xulosaga ham kelishdi. Ammo XXI asrning boshida qurollanishga qabul qilingan yangi artilleriya tizimlari, razvedka, avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalari va o'q-dorilar artilleriyaning jangovar qo'llanishiga bo'lgan yuqorida singari xulosalarga nisbatan shubha uyg'otmoqda.

Darhaqiqat, qo'shinlar manyovrchanligining oshishi, jang maydonida qisqa fursatda yakson qilinishi lozim bo'lgan obyektlarning ko'payishi va o'z artilleriyasining yashovchanligini oshirish talablari artilleriya bo'linmalari o't ochishini

boshqarishning yangi tizimlarini ishlab chiqishni taqozo etdi. Kosmik geolokatsiya tizimlarining rivojlanishi, yangi razvedka vositalarining paydo bo'lishi, yuqori aniqlikdagi o'q-dorilarning keng miqyosda qo'llanishi, raqamli texnologiyalarning artilleriya o't ochishini boshqarishga jalb qilinishi ushbu muammolarni qisqa muddatlarda hal qilish imkonini berdi. Yetakchi davlatlar Qurolli Kuchlarining artilleriya bo'linmalari uchun o't ochish va mo'ljallashning avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari ishlab chiqildi va qurollanishga qabul qilindi.

Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlar Qurolli Kuchlari artilleriya bo'linmalari zamonaviy o't ochish tizimi avtomatlashtirilgan boshqarish komplekslari bilan butlangan. Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlarida "Kapustnik-B", "Mashina-M", AQSh Qurolli Kuchlarida "Afatds", GFRda "Adler", Fransiyada "Atlas", Buyuk Britaniyada "Bates", Xitoy milliy ozodlik armiyasida "CF2C Portable Command System" o't ochish tizimi avtomatlashtirilgan boshqarish komplekslari mavjud bo'lib, ular o'ta muhim, jang va operatsiyalarning natijasiga ta'sir etuvchi vazifalarni bajarishga mo'ljallangan.

Ta'kidlash joizki, zamonaviy o'ziyurar artilleriya to'plarida (masalan, Germaniyaning "PzH-200", Rossianing 2S35 "Koalitsiya-SV") "tez o't ochish" tizimi mavjud, ya'ni artilleriya to'pi qisqa vaqt ichida turli ko'tarilish burchaklarida 5-6 marotaba o't ochadi va ushbu snaryadlar bir vaqtida nishonga kelib tushadi. Bu tizim nishonga talafot yetkazish samaradorligini sezilarli darajada oshirdi, o't ochish vazifasining bajarish vaqtini bir necha barobar

qisqartirdi. Natijada divizion (batareya) bilan vazifa bajarilganda bir vaqtida nishonga 90 tadan 108 tagacha (30 tadan 36 tagacha) snaryad kelib tushishi ta'minlandi.

Zamonaviy jang va operatsiyalardagi vaqt omili bilan bog'liq yana bir muhim jihat shundan iboratki, XX asrning oxiri XXI asrning boshidagi qurolli nizolarda artilleriya va aviatsiyani jangovar qo'llash tajribasi tahliliga ko'ra, artilleriya bo'linmalarining reaksiya (vazifa olinganidan nishonga talafot yetkazilishigacha) vaqt qo'shinlar aviatsiyasiga nisbatan 2,5-4 barobar past bo'lgan. Artilleriya bo'linmalarining o't ochish tizimi avtomatlashtirilgan boshqarish komplekslari bilan butlanishi bu tafovutni 10-12 barobargacha qisqartirdi (vertolyotlar uchun bu vaqt 13-24 daqqa, o't ochish tizimi avtomatlashtirilgan boshqarish komplekslari bilan butlangan artilleriya bo'linmasi uchun esa 1-2 daqqa).

Ekspertlar xulosasiga ko'ra, zamonaviy va kelajakdag'i harbiy operatsiyalarda artilleriya dushmanning turli-tuman obyektlariga talafot yetkazish bo'yicha qo'shinlar aviatsiyasiga nisbatan sezilarli ustunlikka ega bo'ladi. Iqtisodiy jihatdan qiyoslaganda ham artilleriyaning o't ochish vazifalarini bajarishi qo'shinlar aviatsiyasidan ancha arzonga tushadi. Shuningdek, noqulay ob-havo sharoitlarida hamda dushman zamonaviy havo hujumidan mudofaa tizimiga ega bo'lgan sharoitlarda artilleriya umumqo'shin bo'linmalarini qo'llab-quvvatlashning yagona vositasi bo'lib qolishi mumkin.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, boshqarilmaydigan oskolka-fugasli snaryadlar va aniq razvedka vositalarining (shu jumladan, uchuvchisiz uchish apparatlarining) birgalikda qo'llanishi nishonlarni real vaqt rejimida aniqlash, tanlash va yakson qilish imkonini beradi. Jangovar harakatlar tahliliga ko'ra, aniq razvedka vositalari va reaktiv

artilleriyaning birgalikda qo'llanishi, reaktiv artilleriyaning qisqa vaqtida ko'p snaryadlar otishi va ularning nishonlar hududida portlashi, shuningdek dushman qo'shinlari orasida vahima va sarosima chiqishiga olib keladi.

Ta'kidlanishicha, zamonaviy artilleriya turkumi butun front bo'yicha artilleriya vositalarining yetarli zichligini, jamlangan o't ochish imkoniyatini, jang maydonidagi manyovrchanlikni oshirishi va eng asosiysi, o't ochishning maksimal zichligiga erishilishini ta'minlashi kerak. Rivojlangan davlatlar armiyalarida artilleriyaning jangovar qo'llanishi masalasida dushmanning



butun operativ-strategik tizilishidagi obyektlariga bir vaqting o'zida zarba berishga intilish kuzatilmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, quyidagicha xulosalarni keltirish mumkin:

– zamonaviy operatsiyalarda dushmanga talafot yetkazish vazifalarini bajarish borasida artilleriyaning ahamiyati ortib borib, artilleriya qo'shilma va bo'linmalari zamonaviy uzoqqa otar artilleriya qurollari, yuqori aniqlikdagi o'q-dorilar, razvedka vositalari va o't ochish avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari bilan butlanmoqda. Bu kabi innovatsion yondashuvlar natijalari artilleriyaning istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlari yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, bu omil o't ochishni boshqarish samaradorligini oshirish va o't ochish vazifalarini bajarish vaqtini minimal darajaga qisqarishiga olib kelsa, aviatsiya qo'llanishi qiyin bo'lgan sharoitlarda artilleriya umumqo'shin bo'linmalarining yagona ishonchli vositasi bo'lib qoladi.

Yakunda shuni ta'kidlash joizki, barcha yetakchi davlatlar armiyalarida mavjud harbiy texnika va qurol-yaroq'larni yanada takomillashtirish, ularning jangovar imkoniyatlarini oshirish bo'yicha izlanishlar Jadallik bilan davom ettilrimoqda. Shu sababdan, zamonaviy qurolli mojarolarda yetakchi armiyalar tomonidan qo'llanilayotgan barcha turdag'i innovatsion yangiliklarni kuzatib borish, milliy armiyamiz sharoitlarda ularni amaliyotga samarali joriy etish Qurolli Kuchlarimizning jangovar qudratini yetarli darajada bo'lishiga xizmat qiladi.

**S. ABDULLAYEV,
Qurolli Kuchlar
Harbiy meros va zamonaviy
tadqiqotlar instituti kichik ilmiy
xodimi, dotsent**



HARBIY

XIZMATDA HISSIYOTLARNI BOSHQARISH

Inson yashar ekan, umri davomida uyda, ishda, ko'chada umuman yashash jarayonida ruhiy holatga ta'sir qiluvchi vaziyatlarga ko'p duch keladi. Masalan, bajargan ishimiz boshliqqa yoqmasa, xafa bo'lamiz. Eng yomoni, umidsizlikka tushamiz. Hamkasbimiz bilan tortishsak, kun davomida bezovta bo'lib yuramiz. Yoqimsiz va kutilmagan xabarlar ham ruhiyatimizga shunday ta'sir qiladi. Qarabsizki, salbiy his-tuyg'ular kelib chiqqa boshlaydi. Bu, o'z navbatida, uyda oilaviy munosabatlarga, ishda mehnat samaradorligiga ham ta'sir etmasdan qolmaydi.

Olimlar umidsizlik, tashvish, g'azab va yoqtirmaslik hayotda eng ko'p uchraydigan his-tuyg'ular ekanligini aytadilar. Odatda biz ularni yomon hissiyotlar bo'lgani uchun qabul qilolmaymiz. Lekin har qanday his-tuyg'u tabiiy ekanligini unutmaslik kerak. Shuning uchun salbiy his-tuyg'ular qayerdan kelib chiqishi va nima uchun ularni bostirishimiz emas, balki nazorat qilish kerakligini anglab yetishimiz lozim.

Ilmiy tilda gapiradigan bo'lsak, hissiyot bu – inson ruhiyatining reaksiyasi bo'lib, u insonning turli holatlar va obyektlarga subyektiv baholovchi munosabatini aks ettiradi. Psixologlar to'rtta asosiy hissiyotlarni ajratib ko'rsatishadi: quvonch, qayg'u, qo'rquv va g'azab. Bu reaksiyalarning barchasi bizning tajribamiz va ehtiyojlarimiz haqida gapiradigan signal bo'lib xizmat qildi.

Masalan, g'azab yomon his emas. U insonning faolligini ko'rsatuvchi sabablardan biri sanaladi. U juda ko'p energiya oladi, bu xuddi sportdagi kabi sizni rag'batlantirishi mumkin. Aslida g'azabsiz hech bir talabni qondirib bo'lmaydi. Ammo bu hissiyotning salbiy ko'rinishlari – baqir-chaqir, nizo yoki qo'pollik qilish turli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Natijada insonlarda shunday xulosa paydo bo'ladi: g'azab bu – yomon his. Shuning uchun odamlar ko'pincha uni bostiradi va bu yukni tartibga solish o'rniga ichiga yutadi.

Salbiy his-tuyg'ular qondirilmagan ehtiyojning mavjudligini yoki shaxsiy qiladi.

chegaralarimizning buzilganligini ko'rsatadi, biz ko'pincha bu haqda gapirmaymiz.

Xo'sh, hissiyotlarni qanday boshqarish mumkin? Tuyg'ular shunchalik tez paydo bo'ladiki, bizning ongimiz har doim ham bu impulsga darhol javob bermaydi. Chunki xotiramizdan ba'zi voqealar va insonlarga bo'lgan munosabatimizni shunchaki o'chirib bo'lmaydi. Ammo biz o'zimizning va boshqalarning his-tuyg'ularini yaxshiroq tanib, tushunishni o'rganishimiz mumkin. Zero bu qaysi kasb sohibi bo'lmaylik, hayotimizning har jabhasida bizga asqatadi.

Masalan, harbiy xizmatchilarning o'z hissiyotlarini boshqarishni o'rganishi xizmat samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, bugungidek globallashuv sharoitida, insonlar qalbi va ongiga hukmron bo'lishga intilish muammosi yuzaga chiqayotgan shunday davrda bu omilning dolzarb darajaga ko'tarilgani ayni haqiqat. Shuning uchun ham bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizda yuksak psixologik barqarorlikni shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda.

Ma'lumki, doimiy jangovar shaylik va hushyorlik, harbiy bo'linmalarning uyg'unlikdagi harakatlarini ta'minlash, xizmat va jangovar vazifalarni sifatli va o'z vaqtida ado etish, harbiy jamoalarda sog'lom muhitni shakllantirish hamda mustahkam harbiy intizomga erishishda harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki harbiy xizmatchi ruhan sog'lom bo'lsagina, yuzaga keladigan har qanday qiyin sharoitda ham ruhiy holatini nazorat qila oladi, his-tuyg'uga berilmaydi. Kuchli iroda, bardoshlilik va sarb-qanoat kabi fazilatlarini namoyon qiladi.

Harbiy qismlarda axloqiy-ruhiy holatning sifat va samaradorligini yanada yuqori bosqichga ko'tarish maqsadida harbiy psixolog lavozimining joriy etilganidan maqsad ham aslida harbiy jamoalarda psixologik ishlarni to'g'ri tashkillashtirish, sog'lom ma'nnaviy muhitni barqarorlashtirishdir. Bu fan tilida insonning yuksak axloqiy-ruhiy sifatlarini deyiladi. Bu sifatlar esa, o'z navbatida, harbiy xizmatchida g'alabaga intilish, yuqori jangovar faoliyk, mardlik, dadilik, vaziyatni to'g'ri baholash, ruhiy ta'sirlarga qarshi turish, mashaqqatlarga bardosh berish kabi qobiliyatni shakllantiradi. Toblanadi, intizomi kuchayadi. Har jihatdan toblangan kuchli harbiy xizmatchilar esa armiyaning kuch-quadratini belgilaydi.

Harbiy psixologiya sohasida tadqiqot olib borgan psixolog Ch. Nasriddinov psixologik tayyorgarlikni harbiy xizmatchi va harbiy jamoalarda jangovar vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan psixologik sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus chora-tadbirlar tizimi, deya ta'kidlaydi. Harbiy psixolog olim A. Karaya esa harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarda psixologik fazilatlarni shakllantirish, ularning jang maydonidagi faol va samarali harakatlarga psixologik tayyorgarligini va zamonaviy kurash vositalari ta'siriga qarshilik ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgan o'zaro bog'liq chora-tadbirlar tizimini aks ettiradi, deydi.

Bu qarashlar bevosita psixologiya armiyada qanchalik muhim o'r'in egallashini anglatadi. Chunki ko'p hollarda harbiy jamoalarda ruhiy tayyorgarlikning yo'qligi ekstremal vaziyatlarda harbiy xizmatchilarda sarosimaga tushish, ruhiy zo'riqishlarga bardosh bera olmaslik, o'zini boshqarolmaslik, o'zini yo'qotib qo'yish, qo'pollik, dag'allik, qonunni buzish, jangovar holatlarda qo'rquvni yengolmaslik kabi nojo'ya xatti-harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Harbiy xizmatchining ruhiyatiga ta'sir qiluvchi omillar ko'p. Lekin ruhiy barqaror inson har qanday psixologik zo'riqishlarni mardonavor yenga oladi. Shuning uchun ham qo'shinlar faoliyatida harbiy psixologiyaning ahamiyati beqiyos. Shu bois ham jangovar tayyorgarlik jarayonida axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni tashkillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aslida inson hissiyotlarini o'zi boshqaradi. Masalan, siz har doim ko'nglingizda kechayotgan hisni sezib turasiz. Agar ichimizda kuchli g'azab paydo bo'lsa, bu usul o'zimizga kelishga yordam beradi: biz his-tuyg'ularni tan olishga harakat qilayotganimizda, miyaning analistik qismi ishga tushadi va shu sababli hissiyot bostiriladi.

Agar vaziyatda o'zimizni qanday tutishni tushunmasak, masalan, kimdir kutilmaganda qo'pollik qilganda, eng yaxshi yechim jum turishdir. Vaziyatdan uzoqlashish va tinchanish uchun bir necha daqiqa vaqt ajrating. Dam olish uchun sayr qiling, suv iching yoki chuqur nafas olish mashqlarini bajaring. Shunday qilib, biz o'zimizga noto'g'ri boshlangan bo'llishi mumkin bo'lgan aloqani buzmaslik imkoniyatini beramiz.

Aytilgan har qanday salbiy fikrlarni shaxsan qabul qilmang. Aslida insonlarning his-tuyg'ulari biz bilan shaxsan bog'liq emas. Ularning g'azabi sizning shaxsiyatizingizdan emas, balki ularning o'z fikrlari va qondirilmagan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Ularning hissiy reaksiyalaridan qo'rqishning hojati yo'q.

Tuyg'ularni boshqarishda yaxshiroq bo'lganlarni diqqat bilan ko'rib chiqing. Albatta, sizning jamoangizda yoki sizning muhitningizda hissiy odamlarga yoki stressli vaziyatlarga juda xotirjam munosabatda bo'ladigan odam bor. Misol tariqasida, siz hatto film yoki serialning qahramonini ham olishingiz mumkin, u har qanday vaziyatda bezovta bo'lmaydi. Uning xulq-atvoriga e'tibor bering: ovoz ohangi, xulq-atvori va odatlari. Demak, undan ham ko'p narsani o'rganishingiz mumkin.

Bu usullarning barchasi hayotda, harbiy xizmatda ham nizolarning, tushunmovchiliklarning oldini olishga va o'zini tuta bilishga yordam beradi. Ammo sizni kuchli his-tuyg'ularga olib keladigan vaziyatlar takrorlanmasligi uchun ham harakat qilishni unutmasingiz lozim.

Tasavvur qilaylik, sizning safdoshingiz, do'stingizning qaysidir odati sizga yoqmaydi. Bu sizni juda chalg'itadi, shuning uchun bezovtalanasiz. U aynan shu odatni doim takrorlagani sari sizning ko'nglingizda norozilik kuchayaveradi, qarabsizki, g'azablanasiz. Lekin siz g'azabni oshkor qilishga emas, uni boshqarishga odatlaning. To'g'ri, bu oson emas. Lekin doim shunday yo'l tutsangiz bunga ko'nikasiz. Safdoshingizga kelsak. Asabingiz tinch holatda unga muloyim tarzda o'z e'tirozingizni bayon qiling. Agar aytolmasangiz, xat orqali, yoki SMS orqali yozishingiz mumkin.

Shuni esda tutish kerakki, hissiyotni boshqarish vaqt va kuch talab qiladi. Faoliyatining davomida siz ko'pincha turli xil tajribalarga duch kelasiz. Ushbu tavsiyalarni muntazam ravishda qo'llash orqali siz o'z his-tuyg'ularingizni boshqarishni o'rganishingiz va shunga mos ravishda jamoangizda munosabatlarni yuqori sifat darajasida o'rnatishingiz mumkin.

MAHMUD YALAVOCH VA CHINGIZXONNING MOVAROUNNAHRCGA YURISHI

SULTON HUZURIDA

Chingizxon yuborgan elchilar Mahmud al-Xorazmiy, Ali Hoji al-Buxoriy, Yusuf Kanka al-O'trioy Xorazmshoh Muhammadga ulug' xonning tuya o'rakchidek keladigan oltin bo'lagi, qimmatbaho metallar, nefrit toshlari, shohona kiyimlar va boshqa ko'plab hadyalarini topshiradilar.

Sovg'alar orasida xonning maktubi ham bo'lib, unda quydigilar bitilgandi:

"Sening ulug' ishlaringdan, mulking niyoyatda katta ekanligidan, senga ko'plab mamlakatlar itoat etishidan xabardorman. Sen bilan tinch, osoyishta yashashni o'zim uchun majburiyat, deb bilaman. Sen aziz o'g'illarimdan biri kabisan. Mening Vatanim – behisob qo'shinlar va kumush konlar yurti. Agar savdogarlarning ishlariiga yo'l ochishni ma'qul ko'sang, barchamizga foydali bo'ldi".

Sulton qabuldan keyin Mahmudni huzuriga yolg'iz olib kelishlarini buyuradi. Maqsadi Chingizxonning davlati, qo'shini, kuch-qudrati haqida aniq ma'lumotlar olish va uni xon oldidagi o'zining ayy'oqchisi etib belgilash edi. U elchiga mukofotlar va'dasini berib, savolga tutadi. Mahmud Chingizxonning Xitoy mamlakatini, Tamg'aj shahrini olgani boshqa so'zlar rost ekanligini aytganda, sulton ko'zlarida g'azab bilan so'raydi: "Sen menin kimligimni, mulkimning, qo'shimimning qanchalik kattaligini bilasan. Bu la'nati kimki, menga o'g'lim kabisan, deydi. Qo'shinarining soni qancha?" Mahmud al-Xorazmiy hukmdorning g'azabidan cho'chib, jonini qutqarmoq payida "Uning qo'shinini bu xalqlar oldida qo'shin demasa ham bo'ladi, go'yo tun qorong'iligidagi tutunga o'xshaydi", deya yolg'on ma'lumot beradi. Shundan keyingina Xorazmshoh Chingizxonning taklifiga rozi bo'ladi. Va ikki davlat aloqalari O'torda savdogarlarning qirg'in qilinishigacha davom etadi.

YALAVOCH KIM?

Jaloliddin Manguberdining munshiysi, shaxsiy kotibi bo'lgan Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayotining tafsiloti" asarida keltirilgan bu voqealardagi Mahmud al-Xorazmiy Mahmud Yalavoch nomi bilan tanilgan mashhur tarixiy shaxsdir.

Mahmud Yalavoch o'z davrining ziyrak diplomati, zukko savdogari edi. Ikki buyuk hukmdor o'rtasidagi elchining hayoti va faoliyati turli manbalarda turlicha ko'rsatiladi. Ba'zi tadqiqotchilar fazilatlaridan qusurlarini, ba'zilari aksincha fikrni aytadi. U haqda xitoysunos olim, tarix fanlari doktori Ablat Xo'jayev batafsil ma'lumot to'plagan, qiyoslagan va xulosalar qilgan. Olimning yozishicha, Mahmud Yalavoch ismi Xitoy manbalarida Maxama, Maxama Yalavachi, Yalavashi, Maxemodi-Xualashimi, Maxamu-Yalavachi deb ataladi.

Mahalliy va xitoy tarixiy manbalarida, adabiyotlarda uchraydigan Mahmud Yalavochga oid ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, u savdogarlik ishlari bilan Mo'g'ulistoniga borib kelib yurgan va Chingizxon bilan tanish bo'lgan. Lekin bironta xitoy manbasida Mahmud Yalavoch Xorazmshoh karvonlari tarkibida Mo'g'ulistoniga borganligi tilga olinmaydi. Mo'g'ullar orasida Turkiston va Hindiston mollari va san'at buyumlariga ehtiyoj orta borgani sayin Chingizxon savdo ishlariiga o'zgacha e'tibor berib, karvon yo'llarining bexatarligini ta'minlash bilan birga, musulmon savdogarlariga katta hurmat bildirgan. Chunki o'sha zamonda mo'g'ullar savdo ishlari bilan shug'ullanmagan, shu tufayli Chingizxon bu masalada turkistonliklardan foydalishni ma'qul ko'rgan.

Mo'g'ulistoniga kelib savdo qilganlar orasida Buxoro, Samarcand, O'tror, Xo'jand kabi shaharlardan kelganlar ko'philikni tashkil qilgan. Ular orasida Mahmud al-Xorazmiy ham bor edi.

Mahmud Yalavoch katta amaldor bo'lishiga qaramay, Yuan sulolasining rasmiy tarixi, jumladan "Yuan shi"da unga bag'ishlangan maxsus bob yozilmagan, ammo uning amaldorlik qilgan davriga oid qisqacha ma'lumotlar mo'g'ul xoqonlari hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan boblarda uchraydi. Nisbatan ko'proq ma'lumot "Yuan sulolasining maxfiy tarixi"da keltirilgan. Uning "G'ayri avlodlar shajarasi" qismida Mahmud Yalavoch Sharqiy Turkistonning Yorkend shahrida tug'ilgan deyiladi, ammo xitoy adabiyotlarida, jumladan ensiklopedik lug'atlarda Mahmud Yalavoch xorazmlik savdogar, deb ta'riflanadi. Shunga ko'ra, Mahmud Yorkendda tug'ilgan bo'lsa ham, ko'p vaqt davomida Xorazmda yashagan bo'lishi mumkin, deydi Ablat Xo'jayev.



JIDDIY XATO

Kunlar aylanib, Chingizxon tomonidan yuborilgan Umarxo'ja al-O'trioy, Al-Jamol al-Marog'iy, Faxriddin al-Jizzaxiy al-Buxoriy, Aminiddin al-Haraviy kabi savdogarlar karvoni O'trorga yetib keladi. O'trorda sulton tog'asining o'g'li Inolxon noib edi. Uning dilida savdogarlarning mulkiga ega bo'lishdek ochko'zlik paydo bo'ldi, deb yozadi Nasavy. Shu maqsadda u Sulton Xorazmshohga bular savdogar kiyimdagagi ayy'oqchilar, degan mazmunda bo'htondan iborat xat yozadi. Sulton unga javoban ehtiyojkorlik bilan ba'zi choralarini ko'rishni buyuradi. Erki o'z qo'lida bo'lgan tog'a – noib Inolxon savdogarlarni qatl ettirib, uлarning mol-mulkiga egalik qiladi. Ba'zi manbalarda 100, ba'zilarida 400, 450 nafer kishi bo'lgan karvon ahlining oltin, kumush, ipak va boshqa mahsulotlari ortilgan 500 tuyadagi barcha mollarni o'z bilganicha taqsim qiladi.

Bu birinchi jiddiy xato edi.

Ikkinchisi Nasaviyning yozishicha, Chingizxonning yana bir maktubidan keyin sodir bo'ladi. Ahdiga vafo qilmagan, so'zida turmagan mo'minlar sultonining xiyonatkorligi kechirib bo'lmaydigan ish bo'lgani bitilgan maktubda Chingizxon agar bu sening ishing bo'lmasa, aybdor Inolxonni menga topshir, uni jazolaylik, shu tariqa qon to'kilishining oldini olaylik, aks holda – urush, deydi. Xorazmshoh Muhammad bundan bosh tortadi, amirlarning ta'siri bilan elchi Ibn Qafraj Bo'g'ra o'dirilib, ikki hamrohining soqol-mo'ylovleri sharmandali tarzda qirib tashlanadi.

Tarixchi Rashididdinning yozishicha, Xorazmshohning bu qilmishidan Chingizxonda ortiq chidam va toqat qolmay, nafrat o'ti bilan yonadi. Bir o'zi tepalikka ko'tarilib, bo'yniga belbog'ini tashlab, bosh yalang yerga yotib ibodat qiladi. Uch kun yig'lab, Xudoga nola qilib, yordam so'raydi.

Shundan keyin 1219-yilda 200 mingga yaqin qo'shin bilan Xorazmshoh davlatiga hujumni boshlaydi.

ELCHINING KEYINGI HAYOTI

Mo'g'ul qo'shini shaxsiga qaramay, Mahmud Yalavoch Xo'janda turib, ma'lum muddat Chingizxon nomidan Movarounnahrni boshqaradi. Bu davrda u buzilgan jamiyatni, iqtisodiy va madaniy hayotni, maktab va madrasalarni tiklashga jiddiy e'tibor qaratgan.

Xitoy tarixchisi Vang Chjilayning yozishicha, Mahmud Yalavochga bevosita markazga hisobot berish huquqi berilgan edi. Shunga ko'ra, u yig'ilgan soliqlarni Chig'atoxonga emas, balki to'g'ridan to'g'ri Chingizxon saroyiga yuborgan. Mahmud Yalavochga berilgan imtiyoz Chig'atoxya yoqmas edi. Chunki Chig'atoxya in'om etib (*suyurg'ol qilib*) berilgan hudud doirasiga Mahmud Yalavoch hokimlik qilgan joylar ham kirar edi. Shu sabablarga ko'ra, Chig'atoym Mahmud Yalavochdan qutulish yo'lini axtarar va fursat poylar edi, ammo uning Chingizxon oldidagi obro'sini e'tiborga olib, unga qarshi ochiqdan ochiq chora ko'rishga jur'at qilolmagan.

Oradan bir necha yil o'tgandan so'ng Chig'atoxy kutgan fursat ham keladi.

1227-yilda Chingizxon vafot etadi. 1238-yilda Buxoroda Mahmud Torobi yetakchiligidagi qo'z'olon sodir bo'lib, Chig'atoym niyatiga yetadi. Javobgarlikka tortish uchun Mahmud Yalavoch Xitoyga olib ketiladi. Uning o'rniga Xorazm, Samarcand va Sharqiy Turkistonning janubiy qismi, jumladan Qashqarni idora qilish Mahmud Yalavochning o'g'li Ma'sudga topshiriladi.

Mahmud Yalavoch Turkistondan Mo'g'ulistoniga olib ketilgandan so'ng u javobgarlikka tortilgan yoki tortilmaganligi noma'lum. Bu haqda xitoy manbalarida bironata ma'lumot yo'q.

O'qtoyon hukmronligining so'nggi yilida, ya'ni 1241-yilda Mahmud Yalavochga xitoy aholisining ma'muriy ishlari boshqarish vazifasi yuklanadi. Guyukxon va Munke davrida ham yuqori lavozimlarda xizmat qilgan Mahmud 1251-yilda hozirgi Pekin shahriga hokim etib tayinlanadi. Mahmud Yalavochning Pekinga hokimlik qilish davri qisqa bo'lishiga qaramay, u mazkur shahar hayotida va qurilishida katta ishlar qiladi. Bu ishlarga turkistonliklar ko'p jalb etilgan.

Munke 1259-yilda Xitoyning Sichuan o'lkasidagi Xachjou viloyatidagi Dyaoyuyshan tog'i ishg'ol qilinayotganda o'q tegib halok bo'lgan. Mahmud Yalavoch ayni shu voqealardan oldin olamdan ko'z yumgan. Mahalliy manbalarda 1254-yil deb yozilgan.

Mahmud Yalavochning Mas'ud va Alibek ismli ikki o'g'li bo'lib, Alibek avvaliga Ili xoni – Sharqiy Turkistonning Ili viloyati hukmdori etib tayinlangan. Xubilay mo'g'ullar xoqoni etib tayinlanganda u markaziy o'rda chaqirtirilib, davlat ishlariha jaib etilgan. 1267-yilda maslahatchi, 1272-yilda xoqonning o'ng qo'l vaziri etib tayinlangan.



OTAMSIZ O'TGAN



Bu voqeal yuz bergen yili avgusl juda issiq kelgan edi. Yozning boshidan boshlangan qurg'ochchilik esa dehqonning ko'zini qonga to'ldirgan. Birinchi marta otalar darg'atning boshiga bolalarni qorovullikka qo'yishga yuragi betlamay qolgandi. Suv talashib, kim kimmung beliga ketmon bilan solar, boshqasi bo'lsa shunchaki chavaqlab tashlar edi. Tomorqamidagi ekinlarning qulog'i filning quloglariday shalpayib turardi. Egatlari yorilib-yorilib ketgan, bolalar yaxshi ko'radiang bodringlar kampirga o'xshab burishib qolgan edi.

Bir so'z bilan aytganda, it egasini tanimagan o'sha yili men birinchi marta yozgi ta'tilga chiqqandim. Xuddi yil bo'y o'qib, qoyillatib qo'ygandek qishloq bolalari kabi mening ham og'zim qulog'imga yetgandi. Aslida bu u qadar xursand bo'ladigan voqeal emas. Chunki avval mol boqish va uydagi mayda-chuyda ishlardan maktab bahona qutlib qolsak, endi buning sira iloji yo'q edi. Mollarni ko'proq ukam dalaga haydab ketardi, men esa oyog'imga tushov tushgandek bir tovuq qaytarishga yugursam, bir kartoshka palagidagi qo'ng'izlarni terib chiqar, bir onamga uy tozalashga qarashsam, bir otam bilan qo'shilib noskadisini izlar edim. Menga ham adog'i yo'q mayda ishlardan ko'ra mollarni dalaga qo'yib yuborib, tutning soyasida somon chaynab yotish yoqardi. Na iloj, bu hafta ukamning omadi keldi. Kattalarning aytishicha, ukam mol boqishni menden yaxshiroq eplayotgan ekan.

Men o'sha kunga qadar biror marta otamsiz uxlaganimizni yoki otam uygakelmagani eslay olmayman. Ochig'in aytganda, otam bolajon emas edi. Biz ham unga erkalanib, xarxasha qilib yurmasdik. Ammo o'rtamizda ko'rinas shunday rishta bor ediki, u bilan faxlanardik. Boshqalar qanchalar faxrlangan bilmadim-u, ammo men otamga boshqalarni tenglashtirolmas edim. Qo'shnilar bilan solishtirgan taqdirda ham har safar otam yengib chiqardi. To'g'ri, uning mashinasi yo'q edi, ammo uning deraza romidan ortgan bo'yoqning karomati bilan yap-yangi bo'lib qolgan velosipedi bor edi. U oyoqulovini juda ehtiyoq qilardi, doim unga alohida marhamat ko'rsatar, har haftaning so'ngida oyoqlarini yechib, zanjirlarini moylab qo'yardi.

Otam uch qishloq naridagi matabga qatnab ishlardi. Uning ishdan qaytishining o'zi bir marosim edi go'yo. Ukam uyning oldiga - ko'chaga chiqib turardi, men esa uch uy naridiq muylishda turardim. U yerdan qo'shni qishloq boshlanardi va goh bug'doy, goh paxta ekilidigan dala bo'ylab qayrilib ketgan yo'l uzoq-uzoqlargacha ko'rini turardi. Men otamning sharpasidanoq tanirdim, uning bir maromda pedal bosishi va velosiped ustida ham kibr aralash qaddini rost tutishini takrorlab bo'lmadsi. Otamni ko'rishim bilan ukamga baqirardim: "Otam kelyapti... otam kelyapti..." Ukam esa uyda ovqatni tunuka tovoqqa solib, pechkaniq oldida o'tirgan onamga yetkazardi. Onam gaz pechkani yoqardi. Shu bilan otam kiyim almashtirib bo'lganda, uni bekam-u ko'st dasturxon kutib olardi. U choy ichayotganda hamma mum tishlab o'tirardi. O'zining ta'biri bilan aytganda, qorni to'yib, ko'zi joyiga tushgandan so'ng ozgina suhabat bo'lardi va yana hovlida ish qaynardи.

Bu safar matabni ta'mirlash uchun jo'nab ketgan otam qaytishi bilan apil-tapil choy ichgan bo'ldi-yu, yana velosipedi bilan tuman markaziga jo'nab ketdi. Otamning yuzida xavotir bor edi. Onamga nimalarnidir ozgina tushuntirdi. Men og'ziga qarab o'tirdim-u, ammo hech narsa tushunmadim. Onam esa qayg'uli ohangda "shu yetmay turuvdi..." dedi xolos.

Otamning mushaklari baquvvat edi. Sport bilan shug'ullanganini ko'rmagan bo'lsam-da, uning mushaklari qurbaqaga o'xshab bo'rtib turardi.

Qo'shni xotinning shang'llashlari ostida tovuqlarimizni uning tomorqasidan qaytarib kelganimda otam qaytib kelibdi, to'g'riq'i, yana qayergadir ketayotgan ekan. Mashinad!

- Xavotirga o'rinn yo'q, - dedi otam nimalarnidir tayinlayotgan onamning gapini bo'lib. - Biz shunchaki qo'shni tumandagi suv omborini qo'riqlaymiz. Qo'limizga quroq ham berarmish. Lekin... - dedi kaftidagi tuproq nosni tilining ostiga tashlab, - lekin Sariosiyoda rosa to'polon bo'layotgan ekan. Aytishlaricha, davlat rahbari ham yetib boribdi.

Otam nos otganda ham tovushlarni buzmasdan talaffuz qilardi. Bundan ham faxlanardim. Bu ham men uchun "san'at" edi. Chunki konfetni tilimning ostiga solib, gapireshga uringanima kurkadeq g'ulg'ulaganman xolos.

O'sha kuni otam kechki ovqatda dasturxon boshida o'tirmadi. Ukam mollarni boqib kelib, otamning yo'qligidan hayratga tushdi. Biroq men unga tushuntirdim, otamga bugun miltiq berarkan, dedim og'zim qulog'imga yetib. U baribir tushunmad. Oxiri kechki dasturxon boshida yig'ladi. O'zim ham sezgandim, u borgan sari to'qimi ovib, ko'zida yosh aylanayotgan edi. Oxiri ko'zyoshi to'lachadan kelgan yonog'idan gildirab iyagiga qarab jo'nadi. So'ng ovozi ham chiqdi o'sha ko'zyoshning.

Onam jim bo'limasa hozir do'xtir chaqirishini aytdi. Onamga ham bir gap bo'lgandi. U ham xuddi bo'g'ziga nimadir tiqilib qolgandek chiyillab gapirardi. Onam tovuq kataginiq og'zi ochiq qolganini eslab, yopib kelishga chiqib ketdi. Ammo u uzoq qolib ketdi. Va uysa kirganda yig'laganini qizarib ketgan ko'zlar sotib qo'ydi. Onamning qoshlari tabiiy go'zal edi, ammo u xafa bo'lganda yanada go'zallashib, sinfoniamiz doskasining ustidagi Navoiyning qoshiga o'xshab qolardi.

Men otamga o'xshardim. Buni ulg'ayganimda ko'proq anglab yetdim. Men otam kabi toshbag'ir edim. Buni birinchi marta ukam ikkalamizni it tishlab, shifoxonada yotganimizda bilganman.

Otamning aytishicha, bizni tishlagan it "Layka"mizning otasi ekan. O'ziyam eshakdek kelardi u. Ammo bizning "Layka" birovg'a besabab hurmasdi ham. Xillas, biz bir hafta shifoxonada yotdik. Quturishga qarshi ukol qilishdi. Va quturishimizni kutishdi, menimcha. Biz quturmadik. Lekin o'shanda ham ukam ota-onamni sog'iniq yig'lardi. Menga esa Pushkin bir jahon. Otam olib bergen politsiya mashinachasini maza qilib o'ynardim.

Ukam yig'lab-yig'lab uxbab qoldi. Mening ko'zimda uyqudan asar ham yo'q edi. Ha, bolaligimdan uyqusizlik kasaliga chalingandim. Adashmasam, bu bobomning o'limi bilan bog'liq edi. Bir kuni yarim kechasi "Bobom nega o'ladi?" deb yig'lab uyg'ondim-u, shundan kechalari uyg'onib ketdigan yoki eng kech uxbaydigan odat chiqardim.

Onamning ham ko'ziga uyqu kelmayotgani ko'riniq turardi. U o'zini ovutish uchun kitob o'qiyotgandi. Men qalin kitobning muqovasi ortiga rasm chizib o'tirardim. Onam bir-ikki uxlashim kerakligini eslatdi. Biroq u aniq uxlashim kerakligini aytmadni. Demak, onamga ham mening uyg'olqigim ma'qul edi. Shu asnoda otam haqida o'yladim, u hozir nima qilayotgan ekan. Qo'lidagi miltiq bilan dushmanning dodini berayotganmikan-a?

Shu paytgacha har besh daqiqada pirillab qoladigan televizorimizdan ko'rganim, qo'liga quroq tutgan odam, albatta, kimadir o'q uzishi kerak edi. Bunaqa kinolarni otam yaxshi ko'rardi. Biz so'zini tushunmasdik, biroq otam buni tushunardi va berilib ko'rardi.

Sartarosh amakimning aytishicha, otam Afg'onda xizmat qilgan ekan. U jahli chiqsa, tentak bo'lib qolarmish. Chunki hamma afg'onchilar shunaqa emish. Biroq men otamning tentak bo'lganini biror marta ko'rmagan edim. Faqat u bola bilan o'ynashni bilmasdi. Otam bilan bog'liq eng yaxshi xotiram onam xolamlarnikiga qidirib ketganda meni uxlatish uchun aytib bergan baliqchi chol haqidagi ertak edi. O'shanda biram maza qilgandim, otamning issiq qo'njiga kirib, uxlamaslikka tirishardim, otam esa meni uxlatish uchun ertakni achchiq ichakdek cho'zardi. Indallosoni aytganda, ikkalamiz ikki frontda jang olib borardik.

Otam kelmasligini bilsam ham, zerikib ketganimdan onamdan otamning qachon kelishini so'radim. Onam esa quruqqina qilib: "Bir uxbab tursang..." dedi.

Ukam xurrak otishni boshlab yubordi. Onam endi kitobni qo'yib, krossvord yechishga o'tgandi. U bo'sh kataklarni harf bilan to'ldirib chiqardi. Bir payt chiroq o'chdi. Onam turtinib-surinib, moychiroqni yoqdi va qiyomat kuni ham bizning chiroqchilar chiroqni o'chirishni unutmasligini aytdi. Onam hali ham nimadandir norozi edi, tabbiy kirtaygan ko'zlar yanayam ayanchli tus olgandi. Rasm chizishni to'xtatib, ukam bilan onamning orasiga tiqildim. Ukamni surib tashladim. Bilardimki, ukam bir uxlach, tank otsayam uyg'onmasdi.

Onam boshimni siladi. Uning qo'llarida qandaydir titroqni sezdim. Bu menga ham ko'cha boshladti. Yig'lagim kelardi. Bu menimcha, savqi tabiiy edi. Axir shu paytgacha otamsiz tun bo'lgagan. Buni tasavvur ham qilmagan edik.

Onamning pichirlagan tovushini eshitdim. U Xudodan tinchlik so'rardti. Ha, u buni qaytaya so'radi. O'tinib-o'tinib so'radi. Shunda men Xudo onamni eshitmayaptikan degan xayolga ham bordim. Biroq kattalar bir nimani bilmasa, qilmasligini bilardim.

Onamning bunday xavotirli yuzini avval ham, keyin ham ko'rmanman. U moychiroqning xira yorug'ida ham tashvishli edi.

Chiroqning piligi tutay boshladi va onam uni pasaytirib keldi. U televizorning ustida turardi. O'rniga yotgach, rivoyat aytib berishini eshitib, xursand bo'lib ketdim. Ochig'i, ozroq kelayotgan uyqum ham iziga qaytib jo'nadi. Men onamga tiqilib qotdim. Undan rayhonning hidi kelardi.

Uning aytishicha, qadim zamonda qo'li gul kulol bo'lgan ekan. U qo'li gul bo'lishiga qaramay, qashshoq va kamtar kun ko'rarkan. U o'zi yasagan buyumlarning bahosini bilmas yoki bilsa ham ularning bahosini ko'tarmas ekan. O'zining aytishicha, otasi tirilib kelsa ham o'zining ehtiyojidan ortiq ko'za yasamas ekan. Boshqalar esa uni boqi-beq'amlikda ayblar, gulday hunarini xor qilayotganini ta'kidlarkan. Bir kuni uning bunday go'zal iste'dod sohibi ekanidan podshoh xabar topib qolibdi va uning har bir ko'zasining bahosini o'sha ko'zaga sig'uncha oltin bilan belgilab qo'yibdi.

Endi uning uyi karvonsaroyaq aylanib ketibdi. Ko'zalarini bozorga olib chiqishga ehtiyoj qolmabdi. U har bir ko'zani yasab bo'lishi bilan kazo-kazolar xaridor bo'lib, navbat kutib o'tarkan.

Bundan rag'batlangan kulol kechalari ham uxlamasdan ko'za yasashga kirishibdi. O'zi-ku bu ishidan mammun emas, ammo kimdir eshiging tagida mo'litrab o'tirsaga, ko'zga uyqu keladimi.

Oxiri bu bedorlik va tartibsiz hayotdan charchagan kulol saroyaq yo'l olibdi. Uni podshoh hurmat-ehtirom bilan kutib olib, noz-ne'matlar bilan siylagach, kelishining sababini so'rabi.

Shunda kulol: "Qaytaring!" debdi.

Podshoh hayron bo'lib:

- Ko'zalarining qaytarib beraymi? - deya g'azablanibdi.

- Yo'q.

- Unda nimani so'rayapsan? - so'rabi podshoh labiga chilimni qistirib.

- Tinchligimni qaytaring, olampanoh! - debdi kulol onamning ko'zlaridek kirtaygan ko'zlarini podshohga tikib.

Shundan so'ng podshohning roziligi bilan kulol ko'zalarining bahosini avvalgi holiga qaytarib, ko'ngli orom topibdi.

"Ha, - dedim xayolimda, - onam Xudo deyayotgani o'sha podshoh bo'lsa kerak". Ochig'i, men hali bunday rivoyatlarning mag'zini chaqishga yoshlik qilardim. Aqlim qulog'imdan oqayotganiga qaramay, ko'p narsaning ma'nisiga bormasdim.

Shu xayollar bilan uxbab qolibman.

Ertalab onam kosada yangi sog'ilgan surib keldi. Unga to'g'ralgan non paxtadek uvib qolgandi. Ustida sutga qo'shilomagan sariyog' suzib yurardi. Ukam hali ham xafa edi. U indamay sutni ichdi-da, mollarni ipidan bo'shatib, oldiga solib ketdi. Quyosh tikka tushganda yana xuddi shunday qaytib keldi. U ba'zan kun bo'y qaytmasdi, beliga non bilan biron shirinlik tugib ketardi-da, kechga qaytardi. Ammo bugun qaytib keldi.

Choy ichib o'tirgandik ko'chadan mashinaning "billagan"i eshitildi. U qaytaya qaytaya "billagan". Onam avval derazadan qaradi. So'ng yuzidagi qora bulutlar arib, chehrasi ochilib ketdi va otamning kelganini suyunchiladi.

Ukam ikkalamiz o'tirgan joyimizdan to hovliga kirib kelayotgan otamning oldigacha kim o'zar qo'yidik. Otam ikkalamizni ham baravar qo'ltinglab ko'tardi-da, ayvondan ichkariladi. Negadir onam yig'layotgan edi.

...Onam choy ichib ko'zi joyiga tushgan otamdan nima bo'lganini so'ragan edi, otam biznikilar dushmanni chegaradan chiqarib, enasinkiga tiqib kelganini aytdi.

Men birinchi sinfning yozgi ta'tiliga chiqqan edim. Va ular ham enasining uyiga qaytganidan xursand bo'ldim.

KO'TARINKI

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarida faxriylarni e'zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatib, boy xizmat va hayotiy tajribalaridan keng foydalanish maqsadida qator tadbirlar o'tkazilmoqda.



RUHDA O'TGAN UCHRASHUV



Xususan, janubiy sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlayotgan yurt himoyachilarining holidan xabar olish va ular ishtirokida tashkil etiladigan "Uch avlod uchrashuv"da qatnashish uchun DXX Chegara qo'shinlari rahbariyati, faxriy qo'mondonlari va faxriylar Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurdi.

Termiz xalqaro aeroportida kutib olingan mehmonlar uch kun davomida viloyatdagi chegarani qo'rqliash vvvodlarida bo'lib, bu yerda yurt himoyachilari va ularning oila a'zolari uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Sarhadlarimiz posbonlarining samarali xizmat olib borishlari uchun harbiy

qism va bo'linmalar infratzilmasi tobora mustahkamlanib, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan yangi, namunaviy loyihibar asosidagi zamonaviy harbiy shaharchalar barpo etilayotgani, bo'linmalar zamonaviy axborot texnologiyalari, quroslahalar, quruqlikda va suvda harakatlanuvchi harbiy texnikalar bilan ta'minlanayotgani, yurt posbonlarining ham ma'nani, ham jismonan chiniqishlari uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo ekani tashrif buyuruvchilarning diqqat markazida bo'ldi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi yildan yilga kuchaytililib, ularning oila a'zolari va farzandlari bilan

birgalikda istiqomat qilishlari uchun barpo etilgan xizmat xonadonlari, bolalar maydonchalari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ularda yaratilgan shart-sharoitlar, harbiy oila bekalarining bandligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan ishlar ham e'tibordan chetda qolmadidi.

Har bir manzilda ko'tarinki kayfiyat va shukronalik hissi bilan kutib olingan mehmonlar chegarachilar hamda ularning oila a'zolari bilan o'tkazilgan davra suhbatlari chog'ida bu kabi sharoitlardan unumli foydalanish va yurt taqdiriga daxidorlik hissi bilan yashash kerakligi xususida to'xtalib o'tdilar. Shuningdek,





yosh harbiy xizmatchilarga Vatan ostonasini himoya qilish sharafli burch ekani va bu yo'lda har qanday mashaqqatni sabot bilan yengib o'tish zarurligi ham tushuntirib berildi.

Tashrifning uchinchi kuni mehmonlar Termiz shahrida joylashgan "Yosh chegarachilar" harbiy akademik litseyida bo'ldilar. Mehmonlar ushbu maskanda o'quvchilarning sifatlari ta'limga olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishgach, litsey saf maydonida qad rostlagan "Xotira maydoni"ga gulchambar qo'yib, mustaqillik yillarda o'z xizmat vazifasini bajarish chog'ida halok bo'lgan qahramon chegarachilar xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Shundan so'ng litseyning faollar zalida "Uch avlod uchrashuvi" tadbirdi boshlandi. Bir vaqtning o'zida respublikamizning barcha viloyatlardan faxriylar va harbiy xizmatchilarni jalb etgan holda onlayn videomuloqot tarzida o'tkazilgan mazkur uchrashuv davomida faxriylar o'quvchilarga vatanparvarlikning naqadar ulug' tuyg'u ekani, yurt tinchligi va osoyishtaligi uchun xizmat qilish har bir er kishi uchun yuksak mas'uliyat, burch va sharaf ekanini aytib o'tdi. Tadbir davomida Vatan himoyasi yo'lda cheksiz mardlik va jasorat namunalarini ko'rsatib, qahramonlarcha halok bo'lgan chegarachilarining jasoratlari ham yod etilib, ularning tadbirga taklif etilgan yaqinlariga chuqur minnatdorlik izhor qilindi.

Qizg'in savol-javoblarga boy tarzda kechgan samimiy suhbat chog'ida faxriy qo'mondonlar o'z xizmat va hayot tajribalari, rahbarlik davrlarida duch kelgan qiyinchiliklar va ularga topilgan yechimlar xususida so'zlab, general bo'lishni havas qilgan yoshlarga bu unvon sharafli bo'lish bilan birga, o'z sohibidan juda katta mas'uliyat, iroda, matonatni ham talab etishini alohida ta'kidlab o'tdi.

Qiziqarli hikoyalari, mazmunli o'gitlar-u pand-nasihatlarga boy tarzda o'tgan "Uch avlod uchrashuvi" Chegara qo'shinlari ashula va raqs ansamblini tomonidan tayyorlangan konsert dasturiga ularib, yurtga sadoqat, mehr-oqibat va insoniylikni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar barchaga ko'tarinki kayfiyat ularshdi. Shundan so'ng faxriy qo'mondonlar va litsey o'quvchilari bir dasturxon atrofida tushlik qildi.

Respublikamiz bo'ylab harbiy qism va bo'linmalarda tashkil etilib, avlodlar vorisligini ta'minlashga qaratilgan mazkur keng qamrovli tadbirlar fidoyi, yurtga sadoqatli va asl vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.



Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

✓ DAVRA SUHBATI

Oila - hayot gultoji

Nukus garnizoni Ma'naviyat va ma'rifat markazida "Oila salomatligi – millat salomatligi" mavzusida davra suhbati tashkil etildi.

Unda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-major Farhodjon Shermatov, Nukus harbiy prokurori adliya polkovnigi Ulug'bek Abdurahimov, Respublika aholi reproduktiv salomatlik markazi Nukus filiali rahbari Roza Yerimbetova, O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi xotin-qizlar bo'yicha yetakchi mutaxassisni Xurayim Ibragimova, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirot etdi.

Tadbirda ta'kidlanganidek, mamlakatimizda harbiy xizmat nufuzini yuksaltirish va Qurolli Kuchlarimiz jangovar shayligini yanada oshirish maqsadida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasini ta'minlash, yashash va turmush sharoitlarini yaxshilash yo'nalishida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi o'zgarishlar, xususan Shimoli-g'arbiy harbiy okrugda ham yorqin ko'zga tashlanadi. Negaki ilgari mazkur okrugda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarining oilalarida uy-joy, farzandlarini bog'chaga, oila bekalarini ishga joylashtirish masalasida hamda tibbiy ta'minot borasida muammolar mavjud edi. Yillar davomida o'rganilgan muammolar o'z yechimini topib, harbiy xizmatchilarining ijtimoiy himoyasi yo'lida juda ko'p ishlar amalga oshirildi.

2022-yilda harbiy xizmatchilar uchun Nukus va Urganch shaharlarda ipoteka krediti asosida 60 xonadondan iborat yangi qurilgan zamonaviy uy-joy foydalanishga topshirildi, 2023-yilda Urganch shahri markazida 40 xonadonli xizmat uyi qurib bitkazildi. Mayjud xizmat uylari davlat byudjeti hisobidan qayta ta'mirdan chiqarildi. Tibbiy ta'minotni o'z vaqtida va sifatlari tashkillashtirish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, shuningdek Qurolli Kuchlar faxriylarining salomatligini tiklash maqsadida Nukus harbiy gospitali binosi kapital ta'mirdan chiqarilib, zamonaviy tibbiyot apparatlari bilan jihozlandi.

2021-yilda yangi qiyofada faoliyatini boshlagan Nukus garnizoni Ma'naviyat va ma'rifat markazida esa beshta muhim tashabbus doirasida harbiylarning farzandlari uchun fan va sportga yo'naltirilgan to'garaklar yo'liga qo'yilgan.



Oradan hech qancha vaqt o'tmay, to'garakka qatnay boshlagan o'g'il-qizlar ijobiyl natijalarni qo'nga kirita boshladgi. Shaxmat, mental arifmetika, karate, gimnastika to'garaklarida yuqori natijalarni qo'nga kiritgan harbiylarning farzandlari respublika hamda xalqaro tanlovlarda ishtirot etmoqda.

Ayni paytda Nukus garnizoni harbiy shaharchasida 120 xonadonga mo'ljallangan xizmat uyi, 300 o'rinni bolalar bog'chasi qurilayotgani ham yurt himoyachilari va ular oila a'zolarining ijtimoiy himoyasi har doim davlatimiz e'tiborida ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, davra suhbatiда mehmonlar "Yot g'oyalarga qarshi kurashishda tarbiyaning ahamiyati", "Milliy libos – millat ko'zgusi" kabi mavzularda ma'ruza qildi.

Tadbir so'ngida harbiy psixologlar tomonidan harbiylarning oilalarida ta'limga sifatini yaxshilash borasida so'rovnomaga o'tkazib, taklif va muammolar yakka murojaat shaklida tinglandi.

**Shohista ABDURAHMONOVA,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati**

Hamkorlik doirasi kengaymoqda

Respublikamizda faoliyat ko'ssatayotgan har bir oliy ta'lif muassasasi borki, ularning eng asosiy vazifasi davlatimiz taraqqiyoti uchun xizmat qildigan kadrlarni tayyorlashdan iborat.

Tibbiyot, iqtisodiyot, bank-moliya, madaniyat, turizm va sport, qurilish-muhandislik, qishloq xo'jaligi, transport kabi o'nlab, yuzlab sohalarda ta'lif olayotgan yoshlarimiz kelajakda mamlakatimiz ravnaqini ta'minlovchi avlod bo'lib xizmat qiladi. Ular qatorida O'zbekiston

Respublikasi oliy harbiy ta'lif maskanlarida davlatimiz suvereniteti, tinchligimiz va yurtimiz qo'riqchilari bo'lmish bo'lg'usi ofitserlar – sharaflı kasb egalari yetishib chiqadi.



Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti ham bu borada o'zining munosib o'rniiga ega. Institut qisqa vaqt ichida ilm-fan, innovatsiya, ta'lif salohiyati borasida e'tiborga molik yutuqlarga erishib ulgurgani diqqatga sazovor. Bugungi kunda mazkur dargohda yuzlab harbiy va Qurolli Kuchlar xizmatchisi bo'lgan professor o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va tajribali ustozlar kursantlarga saboq berib kelmoqda. Shu bilan birga, ta'lif maskani xorijiy davlatlar va O'zbekistondagi qator ta'lif muassasalarini bilan hamkorlik alopqalarini yo'nga qo'ygan. Kuni kecha bu ro'yxat yana bittaga ko'paydi. Endi mazkur ro'yxatda Toshkent amaliy fanlar universiteti ham bor.

Universitet rektori, texnika fanlari doktori, professor Abdusalom Umarov boshchiligidagi ustozlar, faxriylar hamda talabalar Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida mehmon bo'lib, ta'lif maskani

imkoniyatlari, shart-sharoitlari, dars jarayonlari, shuningdek o'quv sinflari, kutubxonasi, sport inshootlari, aloqa vositalari muzeyi bilan yaqindan tanishdi. Kursantlar va ustozlar tomonidan mehmonlar uchun ochiq darslar tashkil etildi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti boshlig'i podpolkovnik Baxtiyor Rahimov va boshqa mas'ul ofitserlar tomonidan ekskursiya davomida ularni qiziqtirgan savollar bo'yicha ma'lumotlar yetkazildi. Sohibqiron Amir Temur sinfida kursantlar va Toshkent amaliy fanlar universiteti talabalariga buyuk sarkarda hayotiga oid maxsus dars tashkillashtirildi.

Tadbir yakunida ikki ta'lif muassasasi rahbarlari tomonidan hamkorlik memorandumi imzolandi.

Asror RO'ZIBOYEV

BILAGI ZO'RLAR BAHSI

KROSSFIT HAQIDA NIMALARNI BILAMIZ?



Krossfit mashq qildirish dasturi o'tgan asrning 90-yillarda amerikalik sport murabbiyi Grek Glassman tomonidan ishlab chiqilgan. U o'zining birinchi mashq qildirish usullarini politsiyachilar va o't o'chiruvchilarda qo'llab ko'rdi va natijalar kutilganidan ham yaxshi samara berdi.

Hozirgi kunda bu sport turi dunyo miqyosida juda ham ommalashgan va o'z o'rnni topgan. Krossfit dunyoning yetakchi armiyalari jismoniy tayyorgarlik dasturlaridan joy olgan (AQSh, Kanada, Avstraliya, Isroi, Danyia).

Mashqlar asosiy maqsad, insondagi mavjud jismoniy sifat va qobiliyatlarni bir maromda va uyg'unlashgan holda rivojlantirish, mashqlarni bajarishda

bir xillikdan qochishga undaydi. Mashq'ulotlarning zerikarli emas, aksincha qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Bu sport turi insonni turli ekstremal vaziyatlarda jismoniy shay holatda turishini yoki ijtimoiy hayotda jismoniy mehnat va harakatlarga to'g'ri yondashuviga turki beradi.

Krossfit – yuqori shiddat (*intensivlik*) bilan mashq qildirish tizimi orqali ajralib

turadi va o'zida quyidagi sport turlarini mujassamlashtiradi:

- * og'ir va yengil atletika;
- * bodibilding;
- * pauerlifting;
- * fitnes;
- * klassik gimnastika elementlari;
- * tosh ko'tarish.

Mashq'ulotlarning asosiy maqsadi jismoniy sifatlar va ishchanlikni rivojlantrish, yurak-qon tomir va nafas olish tizimi faoliyatini yaxshilash, organizmni turli xil o'zgaruvchan yuklamalarga moslashishga o'rgatish.

Odatda krossfit sprint masofaga yugurish, eshkak eshishni (*maxsus trenajyorlarda*) simulyatsiya qiluvchi mashqlar, arqonga tirmashib chiqish, shtanga, gantel, gimnastika halqalaridagi mashqlar, katta shinalarni dumalatish kabi sport faoliyatidagi mashg'ulotlarni birlashtirishi mumkin.

Murabbiylar va sportchilar uchun yuklamalar bo'yicha hech qanday cheklolvar yo'q, shuning uchun ba'zi mutaxassislar bu intizom haqida salbiy munosabatlar bildiradi. Xususan, krossfitning yurak uchun zararli ekani, shikastlanish xavfi yuqoriligi haqida ham munozaralar uchrab turadi. Bu sport bilan shug'ullanish ma'lum jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lmagan yoki surunkali kasal va sog'lig'i yuqori yuklamalarni ko'tara olmaydigan shaxslarga tavsiya qilinmaydi.



Hozirgi kunda krossfit ham raqobatbardosh sport turi sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yo'nalish tarafdarlari ko'payib, mahalliy krossfit, shuningdek onlayn musobaqalar deyarli butun dunyoda o'tkaziladi. Krossfit O'zbekistonda ham o'z muxlislariga ega. Intensiv jismoniy rivojlanish dasturiga amal qiladigan zallar respublikaning deyarli barcha yirik shaharlari mavjud.

Kuni kecha Qurolli Kuchlar akademiyasida o'tkazilgan krossfit bo'yicha sport musobaqasi ham ko'pchilikda iliq taassurotlar uyg'otdi. Unda kursant va muddatli harbiy xizmatchilar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha belgilangan tartibda kuch sinashdi:

- 2 km masofaga yugurish;
- 25 kg.li grifni turgan holda ko'tarish (15 marotaba);
- tumba yashikka sakrash (15 marotaba);
- 16 kg.li toshni o'tirib-turib ko'tarish (15 marotaba);
- press mashqi (15 marotaba);
- o'tirib-turish mashqi (15 marotaba);
- finishgacha shartli bemorni ko'tarib yugurish.

Polkovnik Sabirjon ABDUAZIMOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi Jismoniy tayyorgarlik va sport kafedrasi boshlig'i

Kulayotgan ayol



Soli usta kecha qorong'isida kelgan yot kishilarni xushlamaygina qarshiladi. Ularning kimligini, kimlarning himoyasida kelganini ham bir qarashda tushundi. Bir kun avval ishni ko'ravotgan tergovchi sal uchini chiqargandek bo'luvdi. Bular hargiz kishilar eshidiga qora mehnat ortidan kun ko'rib kelayotgan oila qizining barbob bo'lgan taqdiriga qayg'urib kelishmagan. Agar shunday bo'limganida el ko'zidan panalab, qorong'ilatib kelmas edilar.

Usta istar-istamas mehmonlarni ichkariga boshladi. Keng, bahavo, ozoda xonaga kirgan erkaklar takallufsiz joylashdilar. Xona jihozlari oddiy, hashamsiz, ammo did bilan qilingan edi. Deraza tokchasiagi barq urib ochilgan gullar xonani nafis iforga to'ldiribdi. Qo'li gul usta bilan nozikta'b beka mehridan fayzli bir xonadon... Erkaklar bunaqa holatni kutmaganidanmi yoki gaplashadigan gapning og'irligidanmi, bir zum bir-birlariga qaragancha taraddudlandilar. Shu payt eshik orqasidan "dadasi..." degan ayol kishining past ovozi eshitildi. Bo'sag'aga yaqin o'tirgan Soli boshini eshik tomon xiyol burdi-da, keskin ovozda dedi:

— Ovora bo'limgan, borib dampingizni oling, mehmonlar shoshilyapti.

Oraga og'ir sukunat cho'kdi. Qishloqdoshlarining har yumushini yelib-yugurib qilib beradigan, qilgan ishiga kim qancha haq bersa, rozi bo'lib ketadigan, qo'y og'zidan cho'p olmaydigan sodda, xokisor bu odamning ovozida kishini hayiqtiradigan nimadir bor edi. Zulm, haqsizlik qarhisida ojiz qolgan yurakning tubidan chiqqan alamli, og'riqli, o'tovchi dard sasimidi, bilish qiyin.

Mehmonlar orasidan yoshi kattarogi si'z boshladi.

— Solijon, bilaman, bu ishni hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Ammo milisavozlik ham yordam beradi, deb o'ylamayman. Mayli, siz istagancha qamalib ham ketar, avvalo ish u darajagacha yetib bormas...

— Maqsadingiz nima, da'vo arizamni qaytarib olishim kerak, shundaymi? — Soli qaltirab ketdi.

— Solijon...

— Solijon demang, men hech qachon jon bo'lmadim bu qishloqqa, bu elga o'z bo'lmadim hech. Agar... agar meni ham odam qatoriga qo'shganlarida bugun bu yuziqoralik bo'lmadsi.

— Har ne desangiz haqilisiz. Ammo bola yoshlik qildi, juvonmarg bo'lib ketmasin. Kelajagini kuydirmaylik.

— Qizim-chi?! Oilamning nomusi-chi?! Meni o'n oltiga ham to'limgan bolamniki kuysa, maylimi? Hayoti barbob bo'ldi-ku! O'n sakkiz yashar yigit bola bo'ladi?!

— To'g'riku-ya, — chaynalib gapga aralashdi yana biri, — shu... qamatgan bilan... qizning sha'niga ham yaxshi gap bo'lmaydi.

— Bas qiling! — dedi usta tishlari g'jirlab. — Ayting-chi, mening qizim o'rnda o'z qizlaringiz bo'lganda shunaqa bepisandlik bilan murosa-yu madoraga chaqirib o'tirarmidengiz? Yo'o-o'q, o'sha iliqkan itdan farqi yo'q qarindoshingizni, Jovli boyning it emgan o'g'lini xuddi shunaqa birlashib borib, chopib kelardingiz! Menda amaldor qarindoshlar yo'q, yolg'izman, o'g'lim hali go'dak... Qonun bor.

— Qonun bor, albatta, — deb gapga aralashdi erkaklarning yoshrog'i, — qiz ham o'z xohishi bilan ko'rishgan, bo'lar ish bo'l...

Rangi quv oqarib ko'ksini changallagan otaga qarab, gapini davom ettirolmay qoldi.

— Dalada edim, tushlik olib kelayotganini olisdan ko'rdim,

— dedi ko'zlarida g'iltilagan yosh, dard to'la ovozda Soli usta. — Ko'zim yetadigan bir joyda... keyin ko'rinnay qoldi. Bir narsani unutib ortiga qaytdi, deb o'yladim. Keb qolar, deb ishimni kelgan yeridan yana davom ettirmoqchi edim, qandaydir qushning ovozidan ko'ksim tilingandek bo'ldi, negadir oyoqlarimdan mador qochdi. O'tirib qoldim. Nima bo'layotganini bilmayman, ammo chap ko'ksimda olov paydo bo'lgandek, qizim qayerda qoldiykan, deb o'girilib yana dala yo'liga qaradim. Nurab qolgan, eski, tashlandiq dala shiyponi uzoqdan ko'zimga ilk kez juda mudhish ko'rindi. Yer egalari qulashini kutmasdan buzib tashlasalar bo'lmasmikan? Bola-baqua mol-hol ortidan yurib, o'ynagani kirsa, bexos qulasa... Shu o'ya yo'iga chiqdim. U esa allaqachon qulab tushgan ekan, naq yuragimga

qulagan ekan. Siniq g'ishtlar orasida kalamush tortqilayotgan quroq dasturxon, sochilib yotgan ovqat va nonni ko'rdim-u, dod devordim. Abgor, yuz-ko'zları qontalash holda xarobadan o'malab chiqqan qizim... Bunday holni ko'rgan otaning ko'zları oqib tushishi kerak edi... Unday bo'lindi. Qandaydir lahzalar ichida olam ostinustun bo'ldi. Nega? Nega mening qumridek beazor qizim bilan bunday qabohat yuz berdi? Qanday g'aflatda qoldim... Bir itdan qizini asrolmagan men ham ota bo'ldimmi?

Yana sukunat cho'kdi. Xonada devor soatinining bir maromda chiqillashi eshitilib turardi. Usta chuqur bir "uh-hh" tortdi va dedi:

— Endi keting. Oilamni tinch qo'ying.

Hafta bo'ldi, xonadonim o'lik chiqqan uydek huvullaydi. Javobimni uzoq kutmaysiz. Qolgani siz va it emgan qarindoshingizning vijdoniga havola.

Soli erkaklarning ortidan chiqmadi.

Tizzalarini quchib, bir nuqtaga tikilib o'tiraverdi.

Sahar turgan ayol yoniga qaradi. Eri yo'q edi. Yana tuni bilan uxlamay hovlida yurib chiqqanga o'xshaydi. Ayolining ko'zlariga yosh keldi. Ammo shu zahoti ko'zlarini artib, o'rnidan turdi, to'shakni yig'ib, hovliga chiqdi. Bostirma tomonda qizining tik turgan joyida chayqalib turganini ko'rib, yuragi shuvullab ketdi. Jonholatda qizi tomonga yugurdi. Ulgurmadi, qizi beton yo'lakchaga kesilgan daraxtdek gursullab quladi. Yig'lab-siqtab qizini boshidan quchoqlab oldi, yuzlarini silab-siypalab, yaqinroqda turgan oftobaning suvidan sepdi. Qiz ko'zlarini ochdi. Ona uning dashhat to'la nighohlari qadalgan tomonga qaradi-yu, a'zoyi badani bo'shashib ketdi. Bostirma ichkarisida erining jonsiz tanasi osilib turar edi. Va shu lahma tong sukunatini buzib, ayol faryodi qishloq bo'ylab olislarga taraldi.

Qiz shu yotganicha o'ziga kelmadi. Soli ustuning ma'rakalari o'tgach, oilasi bir kechada qishloqni tark etdi. Birov bilib, birov bilmadi. Odatdagidek mish-mish bolaladi: qizi aqdan ozgan mish, usta "bu yerdan ketinglar", deb xat qoldirgan mish. Odamlarga quloq solsang, xat emas, katta doston yozib ketgandek. Eshitgan o'zidan qo'shib-chatib, eshitmaganga shu taxlit yetkazdi.

Rostdan ham ustuning yonidan xat chiqqan edi. U qizining ko'zlariga boqib, aybdorlik hissidan har kuni o'lib-tirilishdan charchaganini, nomusini himoya qila olmaygan erkakka o'limdan boshqa chora yo'qligini yozib, xotinidan uzr so'ragan edi. Bor-yo'g'i shu edi. Aytishlaricha, u aynan xotinining ra'yiga qarab, uni qattiq sevganidan ichkuyovlikka rozi bo'lgan ekan.

Ayol erining yurtiga ketdi. Kech bo'lsa-da, g'isht qolipidan ko'chganiga qaramay, ikki bolasini olib, ota uyini tashladi-ketdi.



Mahobatli tog'lar bag'ridagi bu qishloq juda so'lim edi. Teparoqda sharqirab-guvullab oqib yotgan soy yoqalab shaharlarning bir-biridan ko'rkam dala hovlilar ko'rinish turardi. Yoz bo'lgani uchun bu yerlar gavjumlashgan, dam oluvchilarining keti uzilmaydi.

Shunday kunlarning birida tong payti dala hovlilar tomonda odamlar to'zigan aridek bo'lib qoldi. Qiziquvchilar darhol nima gapligini bilish uchun yetib bordilar. Bu yerga ulardan ham avval doim g'alati kulib turadigan Nurjamol devona kelibdi. Dam oluvchilaridan birining yakka-yu yagona o'g'li kechadan beri yo'q emish. Boyda birovning qasdi bo'lsa, bola o'g'irlangan bo'lishi ham mumkin ekan. Kechadan beri atrofda ichki ishlar xodimlarining ko'payib qolgan shundan ekan.

Nurjamol g'azab va choraszlikdan qip-qizarib ketgan, yig'lamoqdan beri bo'lib turgan erkakning yengidan tortdi. Devona ayolga ko'zi tushgan erkak battar tutaqib ketdi.

— Ko'zimdan yo'qotinglar shuni! — deb atrofdagilarga qarab qichqirdi devona o'zidan nari siltab tashlar ekan. — Kechadan beri irjayib jonimga tegib ketdi.

— Siltamang uni, — dedi yig'ilganlardan biri, — hech kimga ozori tegmaydigan devona bir ayol-ku, — shunday deb erkakning siltovidan o'trib qolgan ayolni o'rnidan turg'izdi. Nurjamol o'rnidan turar-turmas bolasi yo'qolgan ayolga talpindi. Ayol esa teskari o'girilib oldi.

— Opa, — dedi turishiga yordamlashgan yigit xuddi qulog'i og'ir odamga gapirgandek, — ukangiz keldi, sizga shahardan sovg'a olib kelibdi.

Nurjamol ukasining kelganini eshitib, g'atali g'udullab pastga, qishloqqa qarab yugurib ketdi. Bekorchi tomoshatalablar ham sekin tarqala boshladi. Hech kim soy yoqalab tekshirmadi. Chunki ular yashayotgan dala hovli soy tomonga odam o'ta olmaydigan tikanli butalar bilan qoplangan edi. Ammo qish ichi yovvoyi jonivorlar kovlab, o'tib-qaytg'an joyga olti yosh bola bermalol kirib-chiqishi hech kimning xayoliga kelmadи.

Nurjamol uyga halloslab kirib keldi.

Uning kelganini ko'rgan hovlidagi jonivorlar istiqboliga chiqdi: cho'loq mushukcha, bitta ko'zi ko'rmaydigan qari it, ikkita katta g'oz, tovuq jo'jalari bilan... Bu manzarani ko'raverib, o'rganib qolgan bo'lsa-da, ukasi kulib yubordi.

— Aya, qarang, — deya onasiga kula-kula yuzlandi yigit, — bular opamni mendan ham ko'proq yaxshi ko'radi.

— Yaxshi ko'radi-da, — dedi onasi ham jilmayib, — hammasini soydan o'lar holida topib kelib, parvarishlagan, juda rahmdil-da.

Nurjamol ilk marta jonivorlariga parvo ham qilmasdan kelib ukasini quchoqladi, g'udullab nimadir deya boshladi.

Onasi hassaga tayanib ularga yaqinroq keldi. Qiziga diqqat bilan termildi.

— Nurbekjon, bolam, — dedi o'g'liga qarab, bezovtalik bilan, — Nurjamol kechadan beri meni orqadagi bog'ga sudraydi, oyoqlarim qaqshab yotibdi, soy tomonga o'tsam, battar o'riq zo'rayidi. Yurolmay qolsam, opang meni epolarmidi? Senga ham o'sha tomonni ko'rsatyapti. Borib qara-chi, yana birona jonivor suv yo'liga tiqilib-piqilib qolmabdimi?

Nurjamol iljayib yo'l boshladi.

Kampir o'ziga moslab ishlangan pastakkina so'rida o'trib, bolalarini kuta boshladi. Negadir hayallab qolishdi. Toqati toq bo'lib ular ortidan hassasini do'qillatib yo'lga tushayotganida ko'cha eshik oldida birin-ketin mashinalar kelib to'xtay boshladi. Ochiq eshikdan formali odamlarning shoshilib kirayotganini ko'rib, hang-mang bo'lib qoldi. Birpasda chog'roq hovli odamga to'ldi. Ular orasida qishloq oqsoqolini ko'rib, nima gapligini so'radi.

— Yo'qolgan bola soyga tushib ketgan ekan, tomorqangizning suv bandiga oqib kelibdi, uyingiz suv boshida-ku...

Shu payt "bola-aam" deya yaralangan sherdek o'kirib, bolaning ota-onasi kirib keldi. Nurjamol ham rangi oppoq oqarib orqa bog'dan chiqib keldi. Er-xotinni ko'rib iljaydi, ularga qarab yurayotgan edi, erkak bor kuchi bilan itarib yubordi. Gursullab tosh hovliga yiqildi. Boshidan tirqirab qon keldi.

Kampir faryod bilan qiziga intildi. Kelganlar orasida shifokorlar ham bor edi. Darhol yordam ko'rsatdilar. Devona hatto og'riqni his ham qilgani yo'q, ko'zlarida qo'rquv bor edi xolos. Biroz vaqt o'tib, orqa bog'dagilar ham besh-olti yoshlarda бола jasadini ko'tarib chiqib keldilar.

Bolaning otasiga diqqat bilan qarab turgan kampir kutilmagan chaqqonlik bilan o'rnidan turib, unga yaqin bordi va hassasi bilan tutrib, o'ziga qaratdi:

— Seni endi tanidim, Jovli boyning itemgan bolasi, yovuzligidandan tanidim, — dedi g'ayritabiyy qo'rqinch ovozda. — Kasofating begunoh bolangga uribdi, esizz... Odamxo'r qotil, erimning boshiga sen yetding, gulday qiz edi-ya Nurjamolim. Uni sen shu ko'ylarga solding!..

— Nurjamol opa bechora bo'lsa, kechadan beri bularga bolasi qayerdaligini ko'rsatmoqchi bo'lgan ekan-da, — dedi ertalabki voqeani eslab qishloq doshi. — Devona, deb siltab, odam o'rnidan ko'rmayotuvdingiz, siz ham, xotiningiz ham.

Erkak kutilmaganda o'tmish bilan yuzlanib, karaxt bo'lib qolgan, xotini esa esi og'ib qolgan odamdek dam kampirga, dam uning iljayib turgan qiziga, dam eriga qarardi.

Qutqaruv xizmati xodimlari er-xotinni mashinaga suyab olib chiqishdi. Qishloq odamlari ulardan hazar qilgandek o'zlarini chetga tortdilar.

Xitoyning Xanchjou shahri mezbonlik qilgan XIX yozgi Osiyo o'yinlari yakunlandi. O'zbekiston sport delegatsiyasi to'rt yilda bir marta o'tkaziladigan mazkur nufuzli kompleks o'yinlarning 38 sport turi bo'yicha bahslarida qatnashdi va 22 ta oltin, 18 ta kumush va 31 ta bronza, jami 71 ta medalni qo'lga kiritib, 45 mamlakat orasida faxrli 5-o'rinni egalladi. Bu O'zbekiston delegatsiyasining

Osiyo o'yinlari tarixidagi eng yaxshi natijasidir. Ushbu muvaffaqiyatga Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham munosib hissa qo'shdil.

Jahon chempionati (2-17-sentabr) hamda XIX yozgi Osiyo o'yinlari (27-sentabr – 8-oktabr) orasidagi juda qisqa fursat va shu tufayli paydo bo'lgan ayrim muammolar nafaqat yurtimiz, balki qit'amiz atletlari chiqishlariga ham ta'sir o'tkazdi – "qit'a Olimpiada" sida o'z mahoratlarini to'liq namoyishi qilishiga xalaqit berdi. Endilikda ushbu mavzu osiyolik mutaxassislar tomonidan ko'plab muhokamalarga sabab bo'lmoqda.

"Xanchjou – 2022"ning og'ir atletika bo'yicha bahslarida terma jamoamiz hisobiga ilk medalni Muhammadqodir Toshtemirov keltirdi. -81 kg vazn toifasida bahslarda ishtirot etgan polvonimiz dast ko'tarishda 159 kg, siltab ko'tarishda 192 kg, umumiy 351 kg natija qayd etib, kumush medalni qo'lga kiritdi.

BOKS

Boks bo'yicha amaldagi qit'a, jahon hamda Olimpiya o'yinlari championi Bahodir Jalolov "Xanchjou – 2022"da ham o'z mahoratini namoyish etdi. Eng og'ir (+92 kg) vazn toifasida yurtimiz sport sharafini himoya qilgan bokschimiz yarim finalda xitoylilik Danabayk Baykuzini 1-raunddayoq "nokau" bilan mag'lubiyatga uchrattdi. Bahodir yarim finaldag'i ushbu g'alabasi orqali "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarini yo'llanmasini ham qo'iga kiritdi. Bu Jalolov uchun faoliyat davomidagi uchinchi Olimpiada yo'llanmasidir! Bokschimizga finalda qozog'istonlik Kamshibek Konkabayev qarama-qarshi keldi va oltin medal uchun o'zaro raqobat biroz murakkab kechdi. Shiddatli jangda Bahodir

— Nigina Osiyo o'yinlarida champion bo'lish va "Parij – 4" yozgi Olimpiya o'yinlari enziyasini qo'lga kiritishni sad qilgandi, — dedi ustozim Xudoyqulov journalistlar suhbatda. — Garchi bronza al bilan kifoyalangan bo'lsasosiy maqsadi — Olimpiada anmasini qo'lga kiritdi. Endi bu musobaqaqa tayyorgarlikni maytitrib, Olimpiya championi sh uchun harakat qilamiz.

BADIY GIMNASTIKA

O'zbekiston delegatsiyasi medallar jamg'arish bo'yicha "Xanchjou – 2022" davomida ancha muddat 4-o'rinni egallab turdi. Ushbu o'rinni saqlab qolishga harakat borayotgan musobaqaning so'nggi kunlari badiiy gimnastikachilarimiz katta sahnaga chiqdi. Dastlab jamoaviy yo'naliш bo'yicha bahslarda vakillarimiz muvaffaqiyatga erishdi. Taxmina Ikromova, Vilana Savadyan hamda Evelina Atalyansdan iborat jamoamiz 324.8 ball jamg'arishga erishdi. Quvonarlisi, ushbu natijani hech bir jamoa takrorlay olmadi va hamyurtlarimiz jamoaviy dasturda oltin medalni qo'lga kiritdi.

Taxmina Ikromova XIX Osiyo o'yinlarining badiiy gimnastika bo'yicha yakkalik bahslarida ham oltin medalga sazovor bo'ldi. Yakkalikning ko'pkurash

YOZGI OSIYO O'YINLARI

-109 kilogrammacha bo'lgan polvonlar o'rtaqidagi bahslari yakunida esa qiziqarli vogelik yuz berdi. Yaqinda Ar-Riyod shahrida o'tkazilgan jahon championati yakunida ikki o'zbek o'g'loni Akbar Jo'rayev va Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili Ruslan Nurudinov eng yuqori pog'onalarga ko'tarilgandi. Jo'rayev 415 (189+226) kg natija bilan birinchi, Nurudinov 407 (180+227) kg natija bilan ikkinchi o'rinni egallagandi. Bu atletlarimiz XIX yozgi Osyo o'yinlarida ham yuqori natija qayd etdi, lekin... quyiroq pog'onalardan joy oldi. "Xanchjou – 2022"da Akbar Jo'rayev 417 (189+228) kg natija bilan kumush, MVSM vakili Ruslan Nurudinov esa 391 (175+216) kg natija bilan bronza medalga sazovor bo'ldi. Mazkur yo'naliishda g'oliblik siltab ko'tarish va ikki kurash bo'yicha Osyo o'yinlari rekordini o'rnatgan xitoylik Huanhua Liuga nasib etdi. Liu 418 (185+233) kg natija ko'rsatdi.

(785-233) kg natija ko'satdi.
Og'ir atletika bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Rustam Jangabayev ham "kichik Olimpiada"ning sovridorlarini qatoridan joy oldi. Eng og'ir (+109 kg) vazn toifasida bahs olib borgan yurtdoshimiz dast ko'tarishda 190 kg, siltab ko'tarishda 233 kg, ikki kurashda esa 423 kg natija bilan bronza medalga sazovor bo'ldi. Oltin va kumush medallar Bahrayn hamda Eron vakillariga nasib etdi.

zafar quchib, XIX yozgi Osiyo o'yinlari g'olibiga aylandi.

Bokschilarimiz Hasanboy Do'smatov (-51 kg) va Abdumalik Xalokov (-57 kg) ham delegatsiyamiz hisobiga oltin medallarni taqdim qildi. Finalga qadar Jo Seyong (Janubiy Koreya), Saken Bibossinov (Qozog'iston), Zohid Rashid (Pokiston) va Suboi Tomoya (Yaponiya) kabi charm qo'lqop ustalarini mag'lub etgani "Rio – 2016" Olimpiyadasi championi Do'smatov murosasiz kechgan final jangida tailandlik Thitisan Panmotni mag'lubiyatga uchratdi. Musobaqa davomida Xitoy Taypeyi vakili Li Cheng Vey, vietnamlik Nguyen Van Duong, filippinlik Karlo Paalam va xitoylik Lyu Ping kabi bokschilarni taslim qilgan Xalokov esa finalda yaponiyalik Shudai Haradani mag'lub etib, Osiyon o'yinlari championiga aylandi. Hasanboy va Abdumalik "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari yo'llanmasiga ham ega bo'ldi.

-80 kg vazn toifasida ringga ko'tarilgan yosh bokschimiz To'rabek Habibullayev yarim finalda xitoylik Tanglatixan To'xtarbekka imkoniyatni boy berdi va Osiyo o'yinlarining bronza medali bilan taqdirlandi. 2021-yili Polshada o'tkazilgan dunyo birinchiligidagi zafar qozonib, o'zbek boksci qizlari orasida ilk jahon championiga aylangan Nigina O'ktamova ham "Xanchjou - 2022"da sovrindor bo'ldi.

YENİÇİL ATLETİKA

Yengil atletika bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi XIX yozgi Osiyo o'yinlarini 2 ta oltin, 2 ta kumush va bitta bronza, jami 5 ta medal jamg'arish bilan yakunladi. Musobaqaning uch hatlab sakrash dasturida 17 yoshli sportchimiz Sharifa Davronova qatnashib, xorijlik mutaxassislarning ham e'tiborini qozondi. U qayd etgan 14.09 metr natijani hech bir raqibi yangilay olmadi va Davronova Osiyo o'yinlari championligiga erishdi. MVSM vakili Safina Sadullayeva ham balandlikka sakrash bahslarida barcha raqobatchilarin ortda qoldirib, Osiyo o'yinlarining oltin medaliga sazovar bo'ldi.

medaliga sazovor bo'ldi.
Musobaqada qatnashgan atletlarimizdan Svetlana Radzivil (*balandlikka sakrash*) va Yekaterina Voronina (*ko'pkurash*) kumush, Suhrob Xodjayev (*bosqon uloqtirish*) bronza medalni qo'lga kiritdi.

SPORT KUBASHI API

XIX Osiyo o'yinlarida sport kurashchilarimiz ham faoliik ko'rsatdi. Yunon-rum kurashi bahslarida qatnashgan terma

jamoamiz a'zosi Jalgasbay Berdimuratov (-87 kg) oltin medalni qo'lga kiritdi. Jalgasbay so'nggi hal qiluvchi final bellashuvida eronlik Nosir Alizodani mag'lub etib, musobaqa championiga aylandi.

Hamyurtimiz Rustam Assakalov (-97 kg) esa o'z faoliyatida uchinchi bor Osiyo o'yinlari sovrindori bo'ldi. Yunon-rum kurashi bo'yicha bellashuvlarda ishtirok etgan hamyurtimiz bronza medal uchun kechgan bahsda qozog'istonlik Islam Umayev ustidan g'alaba qozonib, musobaqani uchinchi o'rinda yakunladi. Bungacha Assakalov hisobida Osiyo o'yinlarining oltin va kumush medallari mavjud edi.

Erkin kurash bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Bekzod Abdurahmonov ham o'z faoliyati davomida uchinchi marta Osiyo o'yinlari sovriniga egalik qildi. U 2014-yili Janubiy Koreya va 2018-yili Indoneziyada o'tgan Osiyo o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritgandi. Xitoya esa shohsupanining uchinchi pog'onasiga ko'tarildi. -74 kg vazn toifasida bahsda borgan hamyurtimiz bronza medal uchun kechgan bellashuvda turkmanistonlik Perman Kammadovdan ustun keldi.

Erkin kurash bo'yicha bir qator musobaqalar sovrindori Javrail Shapiyev (-96 kg) ham o'z shaxsiy sovrinlari kolleksiyasiga Osiyo o'yinlari medalini qo'shib qo'ydi. Hamyurtimiz bronza medal uchun kechgan murosasiz bellashuvda bahrainlik Magomed Sharipovni mag'lubiyatga uchratdi.

Hamyurtimiz Aktunge Keunimjayevasa esa "Xanchjou – 2022"da tarixiy g'alaba qayd etdi, ya'ni "ayollar kurashi bo'yicha Osiyo o'yinlarida sovrindor bo'lgan biringchi o'zbekistonlik sportchi" bo'ldi. -50 kg vazn toifasida bellashuvlarda ishtirok etgan hamyurtimiz bronza medal uchun kechgan bahsda hindistonlik Pujadan ustun keldi. Shundan so'ng O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Laylo Sobirova ham o'z nomini Osiyo o'yinlari sovrindorlari qatoriga qo'shdi. -57 kg vazn toifasida bellashgan hamyurtimiz bronza medal uchun kechgan bahsda hindistonlik Mansini mag'lub etdi.

FUTBOL

"Xirosima – 1994" Osiyo o'yinlaridan keyin futbolchilarimiz 29 yil o'tib yana Osiyo o'yinlari shohsupasiga ko'tarildi – Timur Kapadze murabbiyligidagi O'zbekiston Olimpiya terma jamoasi bronza medal sohibiga aylandi. Mazzur

medal uchun o'tgan bahsda futbolchilarimiz Gonkongni 4:0 hisobida mag'lubiyatga uchratdi. Gol mualliflari Alisher Odilov, Husayn Norchayev (dubl), Alibek Davronov bo'ldi.

Birinchi marta Osiyo o'yinlarida qatnashgan futbol bo'yicha O'zbekiston ayollar terma jamoasi esa musobaqani kuchli to'rtlikda yakunladi. Midori Honda boshchiligidagi jamoamiz musobaqa mezboni Xitoya qarshi bronza medal uchun kechgan bahsda imkoniyatni boy berdi – 0:7.

KARATE

Qit'a o'yinlarining karate (WKF) yo'naliishi bo'yicha bahslarida qatnashgan hamyurtimiz Sevinch Rahimova (-55 kg) delegatsiyamizga oltin medalni keltirdi. Sevinch nimchorak finalda tailandlik Sirikamonate Chokprasertgulni, chorak finalda xitoylik Ding Jiameyni va yarim finalda koreyalik So Xyun Xvanni mag'lub etdi. U final bahsida Xitoy Taypeyi vakili Sui Ping Kuniga qarshi jang qildi va yana g'alaba qozondi.

XIX yozgi Osiyo o'yinlarining so'nggi kungi bahslarida ham medallar uchun kurashuvchilar safida vakillarimiz bo'ldi. Xususan, karate WKF bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Shahrizoda Ismatillayeva (-50 kg) yarim finalgacha muvaffaqiyatlari bahslashdi. Bronza medal uchun Kurashda hamyurtimizga BAA vakilasi Alajmi Havra raqiblik qildi. Afsuski, ushbu bahsda Karatechimizdan omad yuz o'girdi. Shu tariqa Osiyo o'yinlaridagi oxirgi ishtirokchimiz medal qo'lga kirta olmadi.

"XAYR, XANCHJOU – 2022, SALOM, AICHI-NAGOYA – 2026!"

XIX yozgi Osiyo o'yinlari o'z nihoyasiga yetdi. Osiyo o'yinlari tarixida eng ko'p ishtirokchini

jamlagan "Xanchjou – 2022"da qit'aning 45 davlatidan 12 410 nafardan ortiq sportchi qatnashdi. To'rt yillikning eng nufuzli musobaqasi bu safar 40 ta sport turi bo'yicha tashkil etildi. Osiyo o'yinlari davomida 9 ta sport turida "Parij – 2024" Olimpiadasi yo'llanmalari uchun ham kurash bordi. Musobaqalar mobaynida Osiyo o'yinlarining 474 ta medal jamlanmasi 40 ta sport turining 61 ta yo'naliishi kechdi. Bu galgi Osiyo o'yinlarida 27 mamlakat vakillari oltin medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, 41 ta davlat sportchilarini kamida bitta sovrinli o'rin sohibi bo'ldi. "Xanchjou – 2022" musobaqalari davomida bir qator sport turlari bo'yicha 13 ta jahon rekordi yangilandi va bu Osiyo o'yinlarining tarixiy ko'rsatkichi bo'ldi.

O'zbekiston delegatsiyasi 370 nafardan ziyod vakil bilan 38 sport turi bo'yicha bahslarda qatnashdi. Hamyurtlarimiz 32 ta olimpiya, 6 ta noolimpiya sport turlarida yurtimiz sharafini himoya qildi. Ishtirokchilarning 33 nafari armiyamiz sportchilarini, aniqrog'i, Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillari bo'ldi.

Sportchilarimiz Xanchjouda o'z mahorati, tajriba va salohiyatini

namoyon etib, Vatanimiz sharafini munosib himoya qildi. O'zbekiston delegatsiyasi Osiyo o'yinlari tarixida medallar sifati va soni bo'yicha eng yaxshi natijasini qayd etdi. Shu paytgacha eng yaxshi natijamiz 2018-yil Indoneziyada o'tgan Osiyo o'yinlarida bo'lgandi. Unda delegatsiyamiz 20 ta oltin, 24 ta kumush va 25 ta bronza, jami 69 ta medalni qo'lga kiritgandi. Xitoya kechgan XIX Osiyo o'yinlarida esa sportchilarimiz 22 ta oltin, 18 ta kumush va 31 ta bronza,

jami 71 ta medalga sazovor bo'ldi. Ta'kidlash joiz, delegatsiyamiz nisbatan bir necha barobar ko'p sportchi bilan tashrif buyurgan va kuchli o'nlikdan o'ren oltan Tailand, Xitoy Taipeyi, shuningdek qit'amiz sportida yuqori nufuzga ega bo'lgan Qozog'iston, Eron, Gonkong, Qatar, Bahrayn kabi mamlakat jamoalarini ortda qoldirishga erishdi. Osiyo o'yinlarida Tailand 1 000 nafar, Hindiston 700 ga yaqin, Qozog'iston delegatsiyasi 527 nafarni tashkil etganini inobatga olsak, 370 dan ziyyod sportchi bilan qatnashgan vakillarimiz bor imkoniyatlaridan unumli foydalaniib, munosib natijaga erishgani tafsila loyiq. Yana shuni qayd etish joiz, delegatsiyamiz hisobidagi medallarning deyarli teng yarmi sportchi qizlarimiz tomonidan qo'lga kiritildi. Bu esa mamlakatimizda xotin-qizlar sportiga qaratilayotgan e'tibor samarasidir.

XIX yozgi Osiyo o'yinlarida Vatanimiz nomini ulug'lab, dunyoda Yangi O'zbekiston sportining o'z o'rni, o'z salohiyati borligini namoyish etgan mamlakatimiz sport delegatsiyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida tantanali kutib olindi. Marosimda ishtirok etgan hukumat vakillari, vazirlilik, tashkilot mutasaddilari, keng jamoatchilik vakillari Osiyo o'yinlarining tafsilotlari, vakillarimiz erishgan g'alabalar xususida so'zlab, sportchi va murabbiylarga xalqimiz nomidan minnatdorlik bildirdi. G'olib sportchilar nomidan so'zga chiqqan boks bo'yicha XIX yozgi Osiyo o'yinlari mutlaq g'olib, oltin medal sohibi Bahodir Jalolov, yengil atletika bahslarida ishtirok etgan eng yosh sportchimiz va oltin medal sohibasi Sharifa Davronova va boshqalar "Xanchjou – 2022" musobaqalarining ahamiyati xususida so'zlab, davlatimiz tomonidan yaratib berilgan shartsharoitlar muvaffaqiyatlarning bosh omili bo'lganini ta'kidladi.

E'tirof etish joiz, XIX Osiyo o'yinlari mobaynida kelgusi yili Parij shahrida bo'lib o'tadigan XXXII yozgi Olimpiada o'yinlarida Vatanimiz sha'nini himoya qiluvchi sportchilarimizning imkoniyati va salohiyati yana bir bor sinovdan o'tkazildi.

XIX yozgi Osiyo o'yinlarining yopilish marosimida Osiyo Olimpiya kengashi bayrog'i kelgusi Osiyo o'yinlarining mezboni Yaponiyaning Aichi-Nagoya shahriga topshirilgandi. Shunday ekan, "Xayr, Xanchjou, salom, Aichi-Nagoya!" deb qolamiz.



G'olib va sovrindorlar aniqlandi

O'zbekiston Respublikasi IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shinlar miyosida qo'shining yuksak jangovar shayligini saqlash, harbiy xizmatchilarning kasbiy va jismoniy malakasini oshirish, ekstremal sharoitlarda turli jismoniy yuklamalarga ruhiy bardoshliligini takomillashtirish maqsadida sportning harbiy-amaliy turi bo'yicha "Qo'mondon kubogi" musobaqasi har yili muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda.



Musobaqaning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shinlar qo'mondoni polkovnik Shokirjon Xudaynazarov so'zga chiqib, ishtirokchilarni tabriklab, musobaqa shartlarini muvaffaqiyatli bajarishlarida zafarlar tiladi.

Shuningdek, musobaqaga Navoiy shahridagi IIVga qarashli akademik litsey tinglevchilari, hududdagi maktab o'quvchilari va oliy ta'lif muassasalari talabalari, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari hamda jamoatchilik vakillari taklif qilindi. Ular uchun harbiy qismda mavjud jangovar texnika va qurol-aslahalar ko'rgazmasi o'tkazildi. Tashrif buyurganlar bugungi kunda Qurolli Kuchlarimizda harbiy xizmatchilarimizga yaratilayotgan shart-sharoitlar va milliy armiyamizning naqadar kuchli va qudratli ekanligiga amin bo'ldi.



Shundan so'ng Navoiy viloyatida boshlangan sport musobaqasiga start berildi. Ishtirokchilar ko'tarinkи kayfiyat bilan musobaqa shartlarini birma-bir bajarishga kirishdi.

To'rt kun davom etgan mazkur musobaqada qo'shin tarkibidagi harbiy qismlardan 12 ta jamoa taktik, jangovar va jismoniy tayyorgarlikni o'z ichiga olgan 4 ta – umumqo'shin yagona to'siqlar yo'lagidan o'tish, maxsus taktik mashq, BTRni jangovar shay holatga keltirish va 3 kilometrga anjom-aslaha bilan yugurish shartlari bo'yicha o'zaro kuch sinashdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 1-o'rinni Navoiy shahridagi harbiy qism jamoasi qo'lga kiritdi. Ikkinchisi va uchinchi o'rinni Toshkent hamda Namangan shahridagi harbiy qismalar jamoalari sazovor bo'lishdi.

Musobaqaning yopilish marosimida O'zbekiston Respublikasi IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shinlar qo'mondoni polkovnik Shokirjon Xudaynazarov musobaqa tashkilotchilariga o'z minnatdorligini bildirdi hamda g'olib va sovrindorlarga qimmatbaho sovg'a va diplomlarni tantanali ravishda topshirdi.

Podpolkovnik O'ktam MUSURMONQULOV,
IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shinlar
qo'mondonligi bo'lim boshlig'i

Ijodkorlik harbiy xizmatchining ma'naviy quroli

Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, xalqimiz, milliy qadriyatlarimiz, tarixiy-ma'naviy merosimizni qadrlash, shu bilan birga ma'naviy barkamollikka erishish har bir soha vakilining muqaddas burchidir. Ijodiy salohiyatga ega insonlar dunyoqarashi va fikrlesh doirasi, iqtidori, ijodi hamda aql-zakovati bilan bu borada ana shu burchni teran anglab yetadi.



Ijodkorlik xislatlariga ega bo'lish – harbiy xizmatchining yurt tinchligini qo'riqlashdagi ma'naviy quroli bo'lib xizmat qiladi va bu qurol har qanday tahdidiga qarshi kurashishda eng ishonchli vosita bo'la oladi.

Ana shunday iqtidor egalarini rag'batlantirish, ularning o'z aql-zakovatini namoyon etishiga ko'maklashish, kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish hamda o'zbek va jahon adapbiyotining sara asarlariga mehr uyg'otish maqsadida o'tkazilgan ko'rik-tanlovida yuqoridaqgi fikr yana bir marta amalda o'z isbotini topdi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida Qurolli Kuchlar tarkibidagi harbiy xizmatchilar o'ttasida "Tarix bilimdoni", "Eng yaxshi harbiy qo'shiq ijrochisi", "Eng yaxshi yosh adib" hamda "Eng yaxshi yosh shoir" yo'naliishlaridagi ko'rik-tanlov larning respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimida o'nlab ijodiy salohiyatga ega yoshlar tashkilotchilar tomonidan rag'batlantirildi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar hamda Madaniyat va turizm vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Fanlar akademiyasi Tarix instituti, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi hamkorligida tashkil etilgan mazkur ko'rik-tanlovlar milliy armiyamizda harbiy-vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat, milliy ruh, milliy g'urur tuyg'ularini kuchaytirish, intellektual, ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirishni asosiy vazifa sifatida o'z oldiga qo'yanligi bilan e'tiborlidir.

Ko'rik-tanloving respublika bosqichida Mudofaa vazirligi sharafini himoya qilgan kapitan Bunyod Qarshiyev "Tarix bilimdoni" yo'naliishing "Harbiy san'at tarixi bilimdoni", III darajali serjant Botir Hojiyev "Eng yaxshi harbiy qo'shiq ijrochisi" yo'naliishing "Eng yaxshi jangovar qo'shiqlar ijrochisi", muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Erali Avazmurodov "Eng yaxshi yosh shoir"

yo'naliishida, muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Bekzod Ashirboyev "Eng yaxshi yosh adib" yo'naliishida g'olib va sovrindorlar qatoridan joy oldi.

Tengsiz deb topilganlarga diplom hamda esdalik sovg'alarni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi boshlig'i, senator Minhojjiddin Mirzo, Fanlar akademiyasi Tarix instituti ilmiy xodimi Anora Tog'ayeva, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi xodimi Akmal Safarov hamda boshqa hakamlar hay'ati a'zolari tantanali tarzda topshirdi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Shuhrat Dadajonov va xushovoz xonanda Bahriiddin Zuhriiddinov Vatanni madh etuvchi hamda sho'x qo'shiqlari bilan ko'rik-tanlov ishtirokchilari va tadbir qatnashchilariga bayramona kayfiyat ulashdi.

**Asror RO'ZIBOYEV,
«Vatanparvar»**



Yaponiyada o'qituvchilar kuni yo'q



Bir kuni yaponiyalik hamkasbim, muallim Yamamoto dan so'radim:

– Yaponiyada o'qituvchilar kuni qachon nishonlanadi, uni qay tarza nishonlaysizlar?

Yamamoto savolimdan ajablanib, shunday javob berdi:

– Bida umuman o'qituvchilar kuni yo'q.

Unga ishonish-ishonmaslikni bilmay qoldim. Miyamga bir fikr keldi: "Iqtisodiyot, fan va texnika rivojlangan mamlakat nega o'qituvchiga, uning mehnatiga bu qadar humratsizlik bilan munosabatda ekan-a?" Biroq...

Ishdan keyin Yamamoto meni mehmonorchilikka uyiga taklif qildi. U maktabdan uzoqda yashaganligi sababli biz metroda ketdik. Kechki "tig'iz vaqt" bo'lgani uchun metro vagonlari odamlarga to'la edi. Tiqilinchdan biroz siqilgancha, tutqichdan mahkam ushlab turdim. To'satdan yonimda o'tirgan otaxon menga joy berdi. Qari insonning bu qadar hurmati, munosabatini tushuna olmay, men uning taklifini qabul qila olmas edim. Lekin u niroyatda qat'iy turgani uchun, o'tirishga majbur bo'ldim.

Metrodan chiqqandan so'ng men Yamamotadan oqsqoqlining ushbu xatti-harakatini tushuntirib berishini so'radim. Yamamoto tabassum qildi va mening muallimlik ko'krak nishonimga ishora qilib, shunday dedi:

– Bu qariya sizning muallimlik nishoningizni ko'rди va maqomimgiza hurmat belgisi sifatida o'z o'mnini sizga bo'shatdi.

Muallim Yamamotaning xonadoniga ilk bor tashrif buyurganim sababli quruq qo'l bilan borish biroz noqulay edi va men biror sovg'a sotib olishga qaror qildim. Yamamota ushbu qarorimni eshitib, meni qo'llab-quvvatlab, oldinda o'qituvchilar uchun do'kon borligini, u yerda arzon narxlarda mahsulot sotib olishim mumkinligini aytdi. Men yana hissiyotlarimni yashira olmay:

– Imtiyozlar faqat o'qituvchilarga beriladimi? – deb so'radim.

Yamamota mening so'zlarimni tasdiqlab, shunday dedi:

– Yaponiyada o'qituvchilik – eng hummatli kasb, o'qituvchi – eng hummatli inson. Yaponiyalik tadbirkorlar do'konlariga o'qituvchilar kirsa juda xursand bo'lismadi va buni o'zlar uchun katta sharaf deb bilishadi.

Yaponiyada bo'lgan vaqtlarimda men bir necha bor yaponlarning o'qituvchilarga qay darajada hurmat ko'rsatishlariga guvoh bo'ldim. Metroda ular uchun alohida joylar mavjud, ular uchun alohida do'konlar ochilgan, o'qituvchilar har qanday transport turiga chipta olish uchun navbatda turishmaydi. Hayotining har bir kuni bayramdek bo'lganidan keyin nega endi yapon o'qituvchilariga alohida bayram kerak?

Ushbu voqeani so'zlar ekanman, butun qalbim bilan bizning jamiyatimiz ham ustozlarga yuksak darajada munosabatda va o'qituvchilar ham bunday yuqori martabaga munosib bo'ladigan darajaga erishishini istar edim...

**Rasmida: Urushdan keyin
Yaponiyada ta'lif deyarli boshpanasiz
bo'lgan. Dars jarayonida asosiy diqqat
o'qituvchiga va darslikka qaratilgan.**

Rustam BISENEV

✓ MUDOFAGA KO'MAKLASHUVCHI "VATANPARVAR" TASHKILOTLARIDA

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Namangan viloyati kengashi tasarrufidagi Mingbuluoq tumani o'quv sport-texnika klubida ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida samarali natijalarga erishilmoqda.



YOSHLAR KAMOLOTIGA E'TIBOR

Ayni paytda klubda yoshlar uchun "B", "BC", "B" dan "C" ga qayta tayyorlash hamda "E" toifali o'quv kurslari faoliyat ko'satmoqda. Albatta, buning uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

– Yoshlarни jismonan va ma'nан yetuk bo'lishlariga alohida e'tibor qarataymiz, – deydi O'STK boshlig'i Shuhrat Qodirov. – Shu bois klub qoshida "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biathlon", "Karting" va "Motokross" kabi seksiyalar faoliyati yo'lg'a qo'yilgan. Bu to'garaklarga 60 nafar iqtidorli yosh jaib qilingan.

Bugungi yoshlarimiz nafaqat jismonan, balki ma'naviy jihatdan ham barkamol bo'lishlari lozim. Shu bois O'STK jamoasi tashabbusi bilan ma'naviyat va harbiy etilmoqda.

Ayni paytda O'STKda belgilangan o'quv dasturlari ijrosini ta'minlash maqsadida ham bir qancha amaliy ishlar qilinmoqda. Xususan, ommaviy kasbdagi mutaxassislarini tayyorlash, yoshlarни mehnat bozorida ehtiyoj yuqori bo'lgan kasblarga o'qitishni ta'minlash borasidagi ishlar e'tiborga molikdir.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, Mingbuluoq tumani o'quv sport-texnika klubida amalga oshirilayotgan barcha ishlar "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi va viloyat kengashi tonmonidan belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda.



Akbar ALLAMURODOV

Muhim masalalarga bag'ishlandi

Beqiyos imkoniyatlar-u orzu-umidlarga to'la talabalik davrini o'tkinchi havaslarga sarf etish, kelajakni yo'q qilish demakdir. Jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda ham davlatning jiddiy va muhim masalasi hisoblangan. Inson tinch va xotirjam yashashni xohlaydi. Tinchlik bo'lgan joyda baraka va rivojlanish bo'ladi.

Termiz davlat universitetida yil davomida yoshlar o'tasida sodir etilgan jinoyatlar muhokamasi va sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olish choradabirlariga qaratilgan profilaktik tadbir bo'lib o'tdi.

Unda Termiz davlat universitetining yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy yoshlar bo'yicha prorektori O. Shofiyev, viloyat IIB tergov boshqarmasi bo'lim boshlig'i podpolkovnik N. Murodov, Termiz shahar yo'l harakati xavfsizligi bo'limi boshlig'i mayor I. Botirov, fakultet dekanlarining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinnbosarlari, professor-o'qituvchilar, tyutorlar hamda talabalar ishtiroy etishdi.



Tadbir davomida viloyat IIB tergov boshqarmasi bo'lim boshlig'i podpolkovnik N. Murodov tomonidan keyingi vaqtarda talaba-yoshlar orasida sodir etilayotgan jinoyatlar ortib borayotgani, ayniqa yoshlarimiz tomonidan yo'l harakati xavfsizligi qoidalariiga amal qilmay, piyodalar o'tish yo'lagidan harakatlanmasdan, telefon va quloqchinlar bilan yo'lning qatnov qismini kesib o'tayotgani va buning oqibatida yo'l-transport hodisalari sodir etilayotganligi mutlaqo achinarli holat ekanligini alohida qayd etib o'tdi.

Universitetning yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy yoshlar bo'yicha prorektori O. Shofiyev talaba-yoshlar bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy yoshlar samaradorligini oshirish, ular o'tasida huquqbazarlik, jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlarni tizimli tashkil etish, turli zararli oqimlar ta'siriga tushib qolishdan asrash, yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishini ta'minlashga qaratilgan muhim vazifalarni o'z

vaqtida bajarish lozimligi haqida so'z yuritdi.

E'tirof etish joizki, bu kabi tadbirlarning o'tkazilishi talaba-yoshlarning siyosi va huquqi bilimlarini oshirish bilan birga, ular o'rutasida huquqbazarlik va jinoyatchiliklarning oldini olishga, yoshlar bilan yaqindan muloqot olib borib, turli axborot xurujlaridan asrashga hamda yurga muhabbat, uzoq tarixga ega azaliy qadriyatlar, ajdodlar merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qildi.

Ko'tarilgan masalalar yuzasidan talabalar o'z mustaqil fikr-mulohazalarini bildirib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutasaddilar tomonidan javob oldilar.

Jamshid NAZAROV,
Termiz davlat universiteti
o'zbek filologiyasi fakulteti
tyutori



✓ ARMIYA PROKURATURASI

Navbatdagi manzil – Namangan

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuratura tashabbusi bilan "Harbiy prokuratura – armiya prokuraturasi" shiori ostida harbiy xizmatchilarning turmush o'rtoqlari va farzandlari uchun mo'ljallangan kompleks tadbirlarning Namangan viloyatidagi bosqichi yakuniga yetdi.



Jumladan, olis hududlarga tor mutaxassislikdagi shifokorlar jalb etilgan holda, harbiy xizmatchilarning oila a'zolari uchun chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik tashkil etildi. Ayollar orasida uchraydigan kasalliklarning oldini olish maqsadida maxsus tekshiruvlar amalga oshirildi.

Shuningdek ularning ijtimoiy himoyasiga doir qonunchilik mohiyati yuzasidan uchrashuvlar hamda mavjud muammolarini aniqlash va joyida hal etish maqsadida shaxsiy qabullar tashkil etildi. Shu bilan birga, harbiy oilalar xonardonlariga ham tashrif uyuştiриldi.

Kompleks tadbirlar so'ngidagi madaniy-ma'rifiy tadbirlar ham ishtiroychilarda katta taassurot qoldirdi.

**Adliya polkovnigi
Davlatiyor RAHMONOV,
Namangan harbiy prokurori**



✓ OCHIQ ESHIKLAR KUNI

Hech bir savol javobsiz qolmadı

Parkent o'quv sport-teknika klubida "Vatanparvarlik – oliy maqsadim" shiori ostida yoshlarni ona Vatanga, mustaqillik g'oyaligiga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, mardlik, shijoat, milliy g'urur, mehnatsevarlik, irodalilik, mas'uliyatlilik kabi yuksak harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, sportning texnik va amaliy turlariga qiziqtirish hamda kasbga yo'naltirish maqsadida ochiq eshiklar kuni tashkil etildi.

Tadbirga Parkent tumani 1-IDUM maktabining yuqori sinf o'quvchilari tashrif buyurishdi. O'quvchilar sport maskanidagi shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Mutaxassislar mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining asosiy maqsad-vazifalari, moddiy-texnik bazasi haqida batafsil ma'lumot berishdi. Tadbir doirasida tashkil etilgan ko'rgazma esa o'quvchi-yoshlarning mavzu bo'yicha tasavvurlarini yanada boyitgani bilan qimmatli bo'ldi.

Darhaqiqat, qiziquvchanlik yoshlarga xos jihat. Tadbirda o'quv sport-teknika klubi o'qituvchilariga har tomonidan tinimsiz savol yog'dirayotgan o'gil-qizlarning hech bir savollari javobsiz qolmadı.

Shu kuni yoshlar o'quv xonasida bo'lib o'tgan mashg'ulotda yo'l harakati xavfsizligi qoidalari bilan tanishtiриldi. O'quv mashq avtomobilari haqida tushunchaga ega bo'lishdi.



Mirkomil XOMIDOV

Jangovar ruh – JANGCHINING QUDRATLI QUROLI



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 32 yilligiga bag'ishlanadi

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan "Vatanparvar" gazetasi va "O'zbekiston armiyasi" jurnali o'quvchilar, harbiy xizmatchilar, jurnalist, yozuvchi va professional ijodkorlar o'tasida jangovar ruhni oshirish, milliy armiyamiz qo'shinlarining harbiy qudrati, jangovar safarda xizmat qilayotgan Vatan himoyachilarining fidoyiliqi, jasorati, xizmat vazifasini bajarish chog'iда qahramonlarcha halok bo'lgan yigitlar xotirasini abadiylashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning yuksak ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik sifatlarini oshirish, ular qalbida Vatanga muhabbat, Qurolli Kuchlardan g'ururlanish va harbiy xizmatga chuqur hurmat tuyg'ularini kamol toptirish, ulug' sarkardalarimiz hayoti va faoliyati, qahramonliklari, boy merosini targ'ib qilish orqali harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti "Vatanparvar" birlashgan tahririyanati "Jangovar ruh – jangchining qudratli quroli" deb nomlangan publisistik maqolalar tanlovini e'lon qiladi.

TANLOV SHARTLARI

Taqdim etilgan ijodiy ishlар 2023-yilning 29-sentabridan 2023-yilning 15-dekabrigacha (*Word shaklida, 14 shriftda, kirill yoki lotin alifbosida*) "Vatanparvar" birlashgan tahririyaniga yuborilishi lozim.



Manzil: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.
Elektron manzil: vatanparvar-bt@mail.uz yoki telegram manzili (90) 968-62-08.

Quyidagi hujjatlар ilova qilinishi lozim:
– muallif pasporti (*shaxsini tasdiqlovchi hujjat*) nusxasi;
– muallifning manzili va bog'lanish telefonlari;
– muallifning xizmat (*ish*) joyi.



Murojaat uchun telefonlar:
(71) 260-36-50, 260-32-57.

Eng sara ijodiy ishlар "Vatanparvar" gazetasi sahifalarida "Jangovar ruh – jangchining qudratli quroli" tanlovi rukni ostida chop etiladi.

G'OLIBLARNI MUKOFOTLASH

G'oliblar quyidagi mukofotlar bilan taqdirlanadi:
1-o'rin (1 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 25 (*yigirma besh*) barobari, diplom va kitoblar to'plami;
2-o'rin (2 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 20 (*yigirma*) barobari, diplom va kitoblar to'plami;
3-o'rin (3 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 15 (*o'n besh*) barobari, diplom va kitoblar to'plami;
rag'batlantiruvchi mukofotlar (5 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 10 (*o'n*) barobari, diplom va kitoblar to'plami.

Natijalar "Vatanparvar" gazetasi va saytida hamda mudofaa.uz saytining telegram kanalida e'lon qilinadi.

Tanlov g'oliblari va sovrindorlariga mukofotlar 2024-yil Vatan himoyachilari kuni bayrami arafasida tantanali ravishda topshiriladi.

"Vatanparvar"
birlashgan tahririyanati

OBUNA - 2024

"Vatanparvar" gazetasি
nashr ko'rsatkichi – 114

"O'zbekiston armiyasi" jurnali
nashr ko'rsatkichi – 1273

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyanati bilan bog'lanish uchun telegram bot

SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI



MUASSIS

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI
www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-major Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otobek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'yozmalar taqriban qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyanating kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: katta leytenant Islomjon Qo'chqorov
Sahifalovchi: Nodirabegim Ne'matova
Musahih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-5610
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 31 285 nusxa
Boshishga topshirish vaqt: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiha "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: Kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.